

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 378.46

RAXIMBOYEV AKMAL AZATBOYEVICH

**“TURIZM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASH
JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI (XORAZM
VILOYATI MISOLIDA)”**

Ixtisoslik: “Turizm” (Xalqaro va ichki)

**Turizm mutaxassisligi magistri akademik darajasini olish uchun
DISSERTATSIYA ISHI**

Ish ko‘rib chiqildi va himoyaga
qo‘yildi

Ilmiy rahbar
_____ dots. D.Xudayberganov

“Turizm” kafedrası mudiri
dots. F.Abdullayev _____
« ____ » _____ 2017 y.

Ilmiy maslahatchi
_____ dots. F.Abdullayev

Urganch – 2017

	MUNDARIJA	Beti
	KIRISH	3
I-BOB.	KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	9
1.1.	Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va uning muhim vazifalari	9
1.2.	Kadrlar tayyorlash bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribalari va ulardan samarali foydalanish	18
1.3.	Turizm sohasida kadrlar va ularga qo'yiladigan talablar	26
II-BOB.	TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHNING HOLATI VA UNING MUHIM XUSUSIYATLARI	37
2.1.	O'zbekiston turizm sohasida kadrlar tayyorlash muammolari	37
2.2.	Turizm sohasida kadrlar tayyorlashning bugungi holati tahlili	46
2.3.	Kadrlar tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining roli va ishtiroki	55
III-BOB.	TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASH JARAYONINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI	64
3.1.	Xorazm viloyatida turizmga ixtisoslashgan kasb-hunar kollejlarida kadrlar tayyorlash jarayoni va asosiy yo'nalishlari	64
3.2.	Xorazm viloyati turizm sohasida oliy o'quv yurtining ishtiroki va faoliyatining muhim yo'nalishlari	72
3.3.	Xorazm viloyati turizm sohasida kelajakda kadrlar tayyorlashning zamonaviy vazifalari va istiqbollari	80
	XULOSA VA TAKLIFLAR	90
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	95
	ILOVALAR	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasida hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish, ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash, xizmat ko‘rsatish va servis sohasini kengaytirish bilan birgalikda aholining bandlik darajasi hamda real daromadlarini oshirish eng muhim ustuvor yo‘nalishlar deb qaraladi. Shuning uchun ham, turizm industriyasini rivojlantirish bo‘yicha yangi ish o‘rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta‘minlash mutaxassis xodimlar tomonidan bajariladi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda ta‘lim sohasi ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi islohotlarni chuqurlashtiradigan va uni to‘la shakllantirishga ta‘sir qiladigan asosiy omil hisoblanadi. Ta‘lim sohasi mamlakat ijtimoiy sohasining tarkibiga kiritilib, bu sohani qo‘llab-quvvatlashga davlat tomonidan katta e‘tibor qaratilmoqda.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2017 yil 7 fevralda PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni¹ qabul qilindi. Farmonga asosan, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi ishlab chiqilib, uning IV bandi ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari deb nomlanadi. Uning 4-bandi “Ta‘lim va fan sohasini rivojlantirish” o‘z ichiga uzluksiz ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishni oladi.

Darhaqiqat, ta‘lim sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirish, avvalo ta‘lim tizimida amalga oshiriladigan sifat o‘zgarishlarga bog‘liq bo‘ladi. Bu o‘zgarishlar ta‘lim berilishi va samaradorligini oshirish maqsadida qilinadi. Ta‘lim sohasi faqat bir tomonlama sohalarni rivojlantirishga emas, balki boshqa zamonaviy sohalarni rivojlantirishga ham o‘z hissasini qo‘shmoqda.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda). Toshkent sh., 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son.

Ana shunday sohalardan biri turizm sohasi bo'lib, bu sohada ta'lim unda ishlaydigan kadrlarni tayyorlashga qaratilgan. Kadrlar tayyorlash bevosita turizm sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirishga bog'liq. Chunki, sohada kadrlarni tayyorlash turizm sohasida aniq chora-tadbirlar orqali ta'minlanadi. Jahon turizmi bugungi kunda iqtisodiyot sohalari ichida daromad keltirishi bo'yicha yuqori o'rinlardan birini egallaydi, mehnatga layoqatli aholining ko'pgina qismini ish bilan bandligini, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarining yuqori bo'lishini ta'minlaydi va shu jihatdan ham u har doim barqaror rivojlanishga ega.

Turizm sohasi jadal rivojlanayotgan mamlakatlarda birinchi navbatda bu sohani harakatga keltiruvchi mavjud mehnat resurslaridan samarali foydalanish yo'llariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda turistik korxonalarda xodimlar faoliyatini to'g'ri tashkil etib ular salohiyatidan to'g'ri foydalanish turizm xizmatlar bozorida korxonaning iqtisodiy muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillardan biri bo'lib qolmoqda. Bu haqda respublikamiz Prezidenti quyidagicha ta'kidlaydi: Biz hozir faqat turizmni rivojlantirish bilan shug'ullanadigan tuzilmaga doir masalalarni tasdiqladik. Bu choralar turizmning O'zbekiston iqtisodiyoti rivojiga qo'shadigan hissasini oshirish, tarixiy va madaniy qadriyatlarimizni targ'ib qilish, shuningdek, valyuta zaxiralarini to'ldirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar bilan kuchaytirilishi zarur.²

Darhaqiqat, respublikamiz turizm sohasida ayrim muammolar mavjud bo'lib, ushbu muammolar sohada malakali kadrlarni tayyorlash orqali hal qilinadi. Ana shunday muammolar qatoriga, avvalo, turizm sohasining to'liq malakali kadrlar bilan band bo'lmaganligi, shuningdek, turizm sohasida kadrlarning malakasini xorijiy rivojlangan mamlakatlarda oshirishning zarurligi, kadrlarning to'liq kasbiy bilimlarga ega emasligi bilan belgilanadi.

Agar ushbu keltirilgan muammolarni hal qilishga erishilsa, turizm sohasi barqaror rivojlanadi, malakali kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasining oshishiga

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengayti-rilgan majlisidagi ma'ruzasi. // "Xorazm haqiqati" gazetasi. 2017 yil 18 yanvar. № 5 (19351).

erishiladi, sohada boshqa mamlakatlar va tashkilotlar bilan hamkorlikning ta'minlanishiga erishiladi.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida xodimlar, ayniqsa, rahbar xodimlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu bir tomondan boshqarishni demokratlashtirish bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan yangi tashkiliy-huquqiy boshqarish shakllariga o'tish, zamonaviy rahbar mutaxassisni tayyorlash va tarbiyalash bilan bevosita bog'liq.

Ta'kidlash kerakki, turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash, turizm infratuzilmasini takomillashtirish, servis va xizmat ko'rsatishning rivojlanishi ko'plab yangi ish o'rinlari ochilishiga zamin yaratadi. Bu O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlash borasidagi dasturiy maqsadlar amalga oshishiga ham xizmat qiladi.

Bugungi kunga kelib, turizm sohasi iqtisodiyotning muhim, eng yuqori va tez daromad keltiradigan sohaga aylanib bormoqda. Turizm sohasini jadal rivojlantirish borasida respublikamizda bir qator qonunlar, me'yoriy hujjatlar va dasturlar qabul qilindi. Shu bilan birga, turizm sohasini yanada jadallashtirish borasida ham islohotlar chuqurlashib borib, sohaga xos o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning aniq ko'rinishi bevosita kadrlarni sifatli va samarali tayyorlash bilan chambarchas bog'liq bo'lishi kerak. Avvalo, bugungi kunda turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash eng asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Shuning uchun ham, Xorazm viloyati turizmi sohasidagi malakali kadrlar tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish viloyatning turizm potensialining o'sishiga, boshqa mintaqalarga insbatan yaxshi rivojlanishga katta yordam beradi. Mavzuning dolzarbligi ham bevosita ana shular bilan belgilanadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Xorijiy mamlakatlarda turizm sohasini rivojlantirish va boshqarishni ta'minlashga qaratilgan xodimlar, kadrlar faoliyatini tadqiq qilish bo'yicha A.Y.Savelev, E.F.Zeer, A.M.Novikov, D.A.Novikov, V.A.Malkova, V.A.Slastyonin kabi olimlar shug'ullanganlar.

O'zbekistonda turizm sohasini samarali rivojlantirish va boshqarishni ta'minlashga qaratilgan xodimlar faoliyati M.Pardayev, I.To'xliyev, M.Muxammedov, D.Asanova, B.Safarov, R.Amriddinova, B.Isroilov, Sh.Zaynutdinov, R.Nurimbetov, N.Ibadullayev kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Tadqiqotning obyekti va predmeti. Tadqiqotning obyekti Xorazm viloyatidagi turizm sohasi, predmeti qilib esa Xorazm viloyatida turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar olindi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Ishning maqsadi Xorazm viloyatida turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi:

- kadrlar tayyorlash milliy dasturi va uning muhim vazifalarini yoritib berish;
- kadrlar tayyorlash bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribalarini o'rganish va ulardan samarali foydalanish jihatlarini asoslab berish;
- turizm sohasida kadrlar haqida ma'lumot berish va ularga qo'yiladigan talablarni ko'rsatib berish;
- O'zbekiston turizm sohasida kadrlar tayyorlash muammolarini yoritib berish va hal etish yo'llarini ochib berish;
- turizm sohasida kadrlar tayyorlashning bugungi holati tahlilini ochib berish;
- kadrlar tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining roli va ishtirokini ko'rsatib berish;
- Xorazm viloyatida turizmga ixtisoslashgan kasb-hunar kollejlarida kadrlar tayyorlash jarayoni va asosiy yo'nalishlarini ochib berish;
- Xorazm viloyati turizm sohasida oliy o'quv yurtining ishtiroki va faoliyatining muhim yo'nalishlarini ochib berish
- Xorazm viloyati turizm sohasida kelajakda kadrlar tayyorlashning zamonaviy vazifalari va istiqbollari aniqlash.

Tadqiqotning nazariy-uslubiy asosi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi

Qonunlari, Prezident farmonlari va asarlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, iqtisodiy adabiyotlar, internet saytlari va satitsik ma'lumotlar, shuningdek turizm va kadrlar tayyorlash sohasiga bag'ishlangan manbalar xizmat qiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- turizm sohasida kadrlarga qo'yiladigan asosiy talablarni yoritib beruvchi yondashuvlarning ishlab chiqilganligi;

- O'zbekiston turizm sohasidagi kadrlar tayyorlashda mavjud muammolar tadqiq qilinib, ularni hal qilish bo'yicha taklif va tavsiyalarning ishlab chiqilganligi;

- Xorazm viloyatida turizmga ixtisoslashgan ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash masalalari bo'yicha yo'nalishlarning ishlab chiqilganligi;

- kelajakda turizm sohasida kadrlar tayyorlashning zamonaviy vazifalari va istiqbollari ochib berishga qaratilgan tavsiyalar.

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati. Ushbu magistrlik dissertatsiya ishining ahamiyati shundaki, unda keltirilgan materiallardan Xorazm viloyati turizmi sohasida malakali kadrlar tayyorlash jarayonlarini tezlashtirishda va yanada takomillashtirishda, shuningdek, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida, "Turizm va mehmonxona xo'jaligi menejmenti", "Turizm menejmenti", "Personalni boshqarish" va "Turizm iqtisodiyoti" kabi fanlarni o'qitishda keng foydalanish mumkin.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot davomida abstrakt-mantiqiy, monografik, hisob-kitob-konstruktiv, iqtisodiy-statistik, taqqoslash, indeksli va qiyosiy tahlil usullaridan keng foydalanildi.

Tadqiqotning sinovdan o'tishi. Dissertatsiya ishi Urganch Davlat universiteti turizm va iqtisodiyot fakulteti "Turizm" kafedrasida qoshidagi ilmiy-nazariy seminarlarida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan. Tadqiqot natijalari Urganch turizm va tadbirkorlik kollejiga taqdim qilinib, ma'lumotnoma olingan.

Tadqiqot approbatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta respublika ilmiy-amaliy

konferensiyalarida ma'ruza va tezislar ko'rinishida bayon qilingan va ma'qullangan.

Tadqiqot ishining tarkibi. Dissertatsiya ishining tarkibi kirish, 3 ta bobdan iborat 9 ta paragraf, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalar qismlaridan iborat.

Ishning I-bobi "Kadrlar tayyorlash tizimi rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari" deb nomlanib, unda kadrlar tayyorlash milliy dasturi va uning muhim vazifalari, kadrlar tayyorlash bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribalari va ulardan samarali foydalanish hamda turizm sohasida kadrlar va ularga qo'yiladigan talablar yoritilgan.

Ishning II-bobi "Turizm sohasida kadrlar tayyorlashning holati va uning muhim xususiyatlari" deb nomlanib, unda O'zbekiston turizm sohasida kadrlar tayyorlash muammolari, turizm sohasida kadrlar tayyorlashning bugungi holati tahlili, kadrlar tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining roli va ishtiroki ochib berilgan.

Ishning III-bobi "Turizm sohasida kadrlar tayyorlash jarayonining asosiy yo'nalishlari va istiqbollari" deb nomlanib, unda Xorazm viloyatida turizmga ixtisoslashgan kasb-hunar kollejlari kadrlar tayyorlash jarayoni va asosiy yo'nalishlari, Xorazm viloyati turizm sohasida oliy o'quv yurtining ishtiroki va faoliyatining muhim yo'nalishlari hamda Xorazm viloyati turizm sohasida kelajakda kadrlar tayyorlashning zamonaviy vazifalari va istiqbollari yoritib berilgan.

I-BOB. KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY–USLUBIY ASOSLARI

1.1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va uning muhim vazifalari


Inson, uning har tomonlama uygʻun kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini roʻyobga chiqarishning sharoitlari va taʼsirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini oʻzgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Bu jarayon turli omillar va shart-sharoitlar hisobiga taʼminlanadi. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish Oʻzbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.³

Ushbu tizim respublikamiz sharoitida toʻla amal qilib, 1997 yil 29 avgustda “Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi” qabul qilinib, bu tegishli qonun asosida faoliyat yuritib boshladi. Avvalo, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi tʻy gʻrisida”gi qonunining asosiy maqsadi - taʼlim sohasini tubdan isloh qilish, uni oʻtmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan toʻla xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak maʼnaviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir.

Ushbu milliy dasturning ijrosini taʼminlash chora-tadbirlaridan biri taʼlimning fan hamda ishlab chiqarish bilan integratsiyasi taʼsirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish taʼlim sifatini oshirishga xizmat qiladigan muhim omildir. Shu boisdan ham, Yevropa va rivojlangan boshqa barcha davlatlarda taʼlim sifatini oshirishda fan va ishlab chiqarish integratsiyasi masalasiga jiddiy eʼtibor qaratib kelmoqda.

Natijada, kadrlar tayyorlash tizimi tubdan isloh qilinib, buni amalga oshirishga qaratilgan omillar tizimi shakllantirildi (1.1.1-rasm).

³ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. // Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 11-12-son, 295-modda.



1.1.1-rasm. Kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishning muhim omillari⁴

Shuningdek, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlarni tayyorlash Milliy dasturi" oliy ta'limni boshqarish metodologiyasining asosi sifatida quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan:

- "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ta'lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv-ilmiiy-ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash;

⁴ Manba: Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 11-12-son, 295-modda.

- ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslash;

- kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish;

- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

- ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy qilish;

- yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko'rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlari, ustuvorligini ta'minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

- ta'lim, fan va ishlab chiqarish samarali integratsiyalashuvini ta'minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish;

- uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimiga budjetdan tashqari mablag'lar, shu jumladan chet el investitsiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- kadrlar tayyorlash sohasida o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bir qator bosqichlarga ajratildi va ularning mazmuni dasturni keng darajada taraqqiy qildirishga qaratildi. Har bir bosqichda belgilangan vazifalar amalga oshirildi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining bosqichlari va ularning mazmuni⁵

№	Bosqichlarni amalga oshirish davrlari	Bosqichlarning mazmuni
1	Birinchi bosqich (1997-2001 yillar)	Birinchi bosqich mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan ilmiy-uslubiy va moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish
2	Ikkinchi bosqich (2001-2005 yillar)	Milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish
3	Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar)	To'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish

Umuman olganda, ushbu dasturning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta'lim sohasini isloh qilishning muhim shartlaridan biri pedagogik jarayonga innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini jadallik bilan joriy qilish hisoblanadi. Buning asosiy sababi dars jarayonini tashkil qilishda samarali va foydali usullarni ishlab chiqishdan iborat. Chunki, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash – kelajagi buyuk davlat poydevorini qurish, dunyoda o'zimizga yuksak obro' egallash demakdir.⁶

⁵ Manba: Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 11-12-son, 295-modda.

⁶ Karimov I.A. Mamlakatimizni yanada obod etish va modernizatsiya qilishni qat'iyat bilan davom ettirish yo'lida. 21-jild. – T.: O'zbekiston, 2013. – 223 b.

Natijada, mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirishda innovatsion korporativ hamkorlikni asosiy omil sifatida foydalanishga e'tibor kuchaydi. Shuning uchun ham, kadrlar tayyorlashning uchinchi bosqichida ta'lim sifatini oshirish va unda innovatsion korporativ hamkorlikning roli, uning xalqaro tajribasini y'rganish hamda ilg'or xorijiy tajribadan foydalanish b'yicha tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masaladir.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida ta'lim sohasida amalga oshirilgan ishlarga alohida to'xtalib, quyidagilarni ta'kidlab o'tganlar: "O'tgan yili ta'lim-tarbiya sohasini yanada isloh etish va takomillashtirish masalasi ham diqqat markazimizda bo'ldi.

Mamlakatimizda ta'lim va tarbiya sohasiga har yili sarflanayotgan xarajatlar yalpi ichki mahsulotga nisbatan 10-12 foizni tashkil etmoqda. Bu Yuneskonning mamlakatni barqaror rivojlantirishni ta'minlash uchun ta'limga yo'naltirilishi zarur bo'lgan investitsiyalar miqdori bo'yicha tegishli tavsiyalaridan, ya'ni 6-7 foizdan qariyb 2 barobar ko'pdir".⁷

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida ta'lim va tarbiya sohasi turli sohalarga tadbiq qilina boshlandi. Hamda kadrlar tayyorlash milliy modelining o'ziga xos xususiyati mustaqil ravishdagi to'qqiz yillik umumiy o'rta hamda uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini joriy etishdan iborat. Bu esa, umumiy ta'lim dasturlaridan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi dasturlariga izchil o'tilishini ta'minlaydi.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli nomini olgan mazkur dasturning asosiy tarkibiy qismi quyidagilardan iborat bo'ladi:

⁷ Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. // Xalq so'zi. 2016 yil 16 yanvar, №11 (6446).

- shaxs. U kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchisidir.

Ta'lim xizmatlarining iste'molchisi sifatida shaxsga davlat ta'lim olish va kasb-hunar tayyorgarligi ko'rishni kafolatlaydi. Ta'lim olish jarayonida shaxs davlat ta'lim standartlarida ifoda etilgan talablarni bajarishi shart.

Shaxs ta'lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgach, ta'lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatadi va o'z bilimi, tajribasini o'rgatishda ishtirok etadi.

- davlat va jamiyat. Ular kadrlar tayyorlash tizimi amal qilishi va rivojlanishining kafillari, yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha ta'lim muassasalarining faoliyatini uyg'unlashtiruvchi sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Davlat va jamiyat quyidagilarga kafolat beradilar:

- fuqarolarning bilim olish, kasb tanlash va o'z malakasini oshirish huquqlari ro'yobga chiqarilishiga;

- majburiy umumiy o'rta ta'lim hamda akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida ta'lim olish yo'nalishini tanlash huquqi asosida majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishga;

- davlat grantlari yoki pullik-shartnomaviy asosda oliy ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim olish huquqiga;

- davlat ta'lim muassasalarini mablag' bilan ta'minlashga;

- ta'lim oluvchilarni o'qishi, ularning turmush va dam olish shart-sharoitlarini yaratish borasidagi vazifalar hal etilishida jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga;

- ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga;

- sog'liq va rivojlanishda nuqsoni bo'lgan shaxslar ta'lim olishiga.

- uzluksiz ta'lim. Bu malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimining asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.

Uzluksiz ta'lim O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir.

Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxsning shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

- fan. Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiqfan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi pedagogik va axborot texnologiyalari ishlab chiqaruvchi hisoblanadi. Kadrlar tayyorlash milliy modeliga muvofiq fan sohasida:

- tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari to'g'risidagi yangi fundamental va amaliy bilimlar shakllanadi, kadrlar tayyorlash tizimida ommalashtirish, o'rganish va foydalanish uchun kerakli ilmiy natijalar jamlanadi;

- oliy malakali ilmiy va pedagog kadrlar tayyorlash amalga oshiriladi;

- kadrlar tayyorlash jarayonini ilmiy-tadqiqot jihatidan ta'minlash infrastrukturasi vujudga keltiriladi, ta'limning axborot tarmoklaridan foydalanish maqsadida bilimning turli sohalari bo'yicha axborot bazasi shakllantiriladi;

- mamlakatimiz ilm-fanning jahon ilm-faniga integratsiyasi sodir bo'ladi, zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarning eng muhim muammolarini hal etish uchun ilmiy yutukdar va kadrlarni xalqaro miqyosda almashinuvi amalga oshiriladi.

Kadrlar tayyorlash tizimiga ilm-fanning uzviy ravishda kirib borishi uchun quyidagilar zarur:

- ilg'or pedagogik texnologiyalarni yaratish va o'zlashtirish yuzasidan maqsadli innovatsiya loyihalarini shakllantirish va amalga oshirish yo'li bilan ilm-fanning ta'lim amaliyoti bilan aloqasini ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

- ilg'or axborot va pedagogik texnologiyalarni joriy etish uchun eksperimental maydonchalar barpo etish orqali ilmiy tadqiqotlar natijalarini o'quv-tarbiya

jarayoniga o'z vaqtida joriy etish mexanizmini ro'yobga chiqarish;

- kadrlar tayyorlash milliy dasturini samarali tarzda bajarishni ta'minlash yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish;

- yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, yoshlarning ilmiy ijodiyotini har tomonlama qo'llab-quvvatlash;

- ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar darajasini baholashga zamonaviy yondashuvni ro'yobga chiqarish, ilmiy tadqiqotlar va texnologik ishlanmalar natijalari tijoratlashuvi asosida olimlarning obro'-e'tibori va ijtimoiy maqomini oshirish;

- mamlakat ilm-fanining xalqaro ilmiy hamjamiyatdagi integratsiyasini faollashtirish, ta'lim sohasi va kadrlar tayyorlashni takomillashtirish maqsadida ilmiy yutuqlar va olimlar bilan o'zaro tajriba almashinuv jarayonini kuchaytirish;

- fan va texnologiyalar sohasidagi faoliyatni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish, talabalar va yosh olimlarning ilmiy yutuqlari uchun maxsus mukofotlar va sovrinlar ta'sis etish, maxsus stipendiyalar sonini ko'paytirish, yoshlar ilmiy-texnika ijodiyotining doimiy ishlaydigan ko'rgazma va ekspozitsiyalarini tashkil etish ko'zda tutiladi.

- ishlab chiqarish. Ishlab chiqarishning talab-ehtiyojlari kadrlar tayyorlash tizimining yo'nalishi, darajasi va miqyoslarini shakllantiradi, kasb tayyorgarligining maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilaydi, malaka talablarini ilgari suradi, ta'limning muqobil texnologiyalari va shakllarini tanlashni taqozo etadi. Ishlab chiqarish pirovard natijada kadrlarning sifati va raqobatbardoshligiga baho beradi.

Ishlab chiqarishning kadrlar tayyorlash tizimidagi vazifalari quyidagilar bilan belgilanadi:

- turli saviya va malakadagi mutaxassislariga bo'lgan talab-ehtiyojni shakllantiradi;

- o'z ixtiyoridagi moddiy-texnika, moliya, inson resurslari hamda kadrlarni o'qitish, malakasini oshirish va qayta tayyorlash uchun zarur boshqa resurslarni

berish bilan uzluksiz ta'lim tizimiga ko'maklashadi;

- muassis, vasiy, donor, homiy tariqasida ayrim mutaxassislar va guruhlarini maqsadli tayyorlashni, shuningdek, turli tip va darajadagi o'quv yurtlarini moliyalashda qatnashadi;

- ta'lim va ilm-fanning turli shakllardagi integratsiyasini (muvaqqat ijodiy jamoalar, o'quv ilmiy-ishlab chiqarish majmualari, markazlari, texnoparklar va texnopolislar) rivojlantiradi.

Ishlab chiqarishning kadrlar tayyorlash tizimidagi mavqeini kuchaytirish quyidagi yo'llar bilan ta'minlanadi:

- ta'limni korxonadagi unumli mehnat bilan, shu jumladan, ishlab chiqarish amaliyoti jarayonidagi mehnat bilan qo'shib olib borish asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlash;

- kadrlar tayyorlash hamda birgalikda ilmiy-texnologiya ishlanmalarini olib borishda korxonalarning ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish;

- ta'lim oluvchilarni mehnat jamoalarida tarbiyalash (mehnat, ma'naviy va jismoniy tarbiyalash);

- ishlab chiqarishning talab-ehtiyojlarini inobatga olib, texnika va texnologiyalarni rivojlantirishning yangi yo'nalishlari bo'yicha kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

- ishlab chiqarishning iqtisodiy va texnologiya muammolarini hal etish uchun oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarning ilmiy salohiyatini jalb etish;

- pedagog kadrlarning ilg'or texnologiyalar sohasidagi malakasini bevosita ishlab chiqarishda muntazam oshirib borish;

- ishlab chiqarishning yuqori malakali kadrlarini ta'lim jarayoni va pedagogik faoliyatga jalb etish;

- ishlab chiqarish amaliyotini o'tash uchun ta'lim oluvchilarni ish joylari bilan ta'minlash;

- o'zaro integratsiyalangan ta'lim muassasalarini zamonaviy uskunalari, apparatlar va asboblari bilan jihozlash.

Umuman olganda, O‘zbekiston Respublikasi tomonidan inson huquqlari, ta’lim, bola huquqi sohasidagi shartnomalar va konvensiyalarning bajarilishi, kadrlar tayyorlash sohasida jahon ilg‘or tajribasini hisobga olish uzluksiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining barcha jihatlariga dahldor bo‘lib, uning rivojlanishi omillaridan biridir.

1.2. Kadrlar tayyorlash bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribalari va ulardan samarali foydalanish

Turistik biznes har qanday davlat, viloyat, tumanning iqtisodiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Iqtisodchilarning baholariga qaraganda, undan olinadigan pul tushumlari bir yil davomida 3 martadan 5 martagacha muomalada bo‘ladi. Katta mablag‘lar talab qilishiga qaramay, turistik sohasiga kapital qo‘yish ancha foydalidir, chunki bu mablag‘lar nisbatan tezroq o‘zini oqlaydi va ko‘proq xorijiy valyutada sarmoya keltiradi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda turizmdan olinadigan tushumlar yuqori sur‘atlar bilan ko‘payib bormoqda.

Turistik xizmatlar bozori doimiy rivojlantirish va nazorat qilish asosida boshqarishga muhtoj bo‘lib, bunda ilmiy va oqilona rejalashtirish tamoyillaridan foydalanish zarur. Ana shunda turistik davlatga katta iqtisodiy foyda keltirishi, shuningdek ekologik shart-sharoit va jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy jarayonlarga yaxshi ta’sir ko‘rsatishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasining “Turistik to‘g‘risida”gi Qonuni turistikni rivojlantirish bo‘yicha milliy, mintaqaviy, mahalliy dasturlar ishlab chiqish, ushbu yuqori rentabelli iqtisodiyot tarmog‘ining oyoqqa turishi uchun me’yoriy-huquqiy baza yaratish asosida turistik sohasida davlat siyosatini amalga oshirishni nazarda tutadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq Respublikamiz Birinchi Prezident I.A.Karimov rahbarligida o‘zining bosh strategik maqsadini belgilab oldi. Bu bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlat barpo etish, kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishdan iborat. Ushbu tarixiy

jarayonning samarali kechishi, shubhasiz, o'z kasbiga sodiq, vatanparvar, salohiyatli kadrlar faoliyatiga ham ko'p jihatdan bog'liq.⁸

Bilamizki, yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash kelajagimizning ishonchli poydevoridir. Bu avlod kelajakda kadrlar bo'lib etishadilar. Bunga ta'lim sohasini jadallashtirish bilan erishiladi. Bu haqda Birinchi Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Oldimizda turgan eng ezgu maqsadlarimiz mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham O'zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o'rin egallashi ham bularning barchasi, avvalambor yangi avlod, unib o'sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo'lib voyaga etishiga bog'liqdir".⁹


Bevosita yuqoridagi jarayonlarni kelajakda kadrlar amalga oshiradilar. Bu turizm sohasidagi kadrlar bo'lib, ularni tarbiyalash asosida har tomonlama barkamol bo'lib voyaga etgan avlodga bog'liq. Haqiqatdan ham, yosh avlod kelajakda malakali kadr sifatida jamiyatda muhim o'rinni egallaydi va ta'lim tizimida ularning rolini kuchaytirish hamda rivojlantirish yo'nalishini belgilash ustuvor vazifaga aylanib boradi.

Chunki, mamlakatimizda turistik faoliyati mustaqillik yillaridan boshlab, iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishi sifatida talqin qilinib, unga e'tibor iqtisodiy siyosat darajasiga ko'tarilgan. Sohaning rivoji uchun zaruriy tashkiliy-huquqiy mexanizm vujudga keltirilib, hukumat tomonidan tegishli me'yoriy hujjatlar qabul qilindi va bu boradagi ishlar hozirgi kunda ham davom ettirilmoqda.

Shu bilan birga, xorij tajribasida personal, ya'ni xodim muammolarini hal qilishga doir quyidagi ikki xil asosiy yondashuv mavjud (1.2.1-rasm).

⁸ <http://huquqburch.uz/uz/view/340>

⁹ Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish bizning bosh maqsadimizdir. Birinchi Prezident I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag'ishlangan marosimdagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. –T.: O'qituvchi, 2013. - 56 b.



1.2.1-rasm. Xorijiy mamlakatlarda xodimlarni o‘rganishga bo‘lgan yondashuvlar¹⁰

Rasmda keltirilgan yondashuvlarga asosan, “personal”, ya’ni xodim atamasi ko‘pincha unchalik katta bo‘lmagan firmalar, bu erda “100 nafar kishidan kamroq kishi band bo‘ladi” tomonidan ishlatiladi. “Inson resurslari” atamasidan foydalanuvchilar orasida xodimlarining soni 2,5 ming nafar kishidan ortiq bo‘lgan yirik tashkilotlar ustunlik qiladi.

Avvalo, xorijiy mamlakatlar tajribasiga muvofiq, mehmonxona tarmog‘ida ishlaydigan xodimlarining ishlab chiqarishdagi xulq-atvori korxona va tashkilotning maqsadlariga erishishga qanchalik yaqin bo‘lsa, ular ishining samaradorligi, inson resurslaridan foydalanish samaradorligi shunchalik yuqori bo‘ladi. Demak, inson resurslarini boshqarish vazifasi tashkiliy maqsadlarga erishish uchun har bir xodimning talab qilingan xulq-atvorini ta’minlashdan iborat.

Bundan tashqari, inson resurslarini boshqarishning sifat xususiyati, yana miqdor xususiyati ham mavjud bo‘ladi. Mehmonxona o‘z maqsadlariga erishish uchun zarur bo‘ladigan miqdordagi xodimlar soniga ega bo‘lishi lozim. Umuman, inson resurslarini boshqarish mehmonxonani ishlab chikarish vazifalarini bajarish

¹⁰ Manba: Zaynutdinov Sh., Nurimbetov R. Personalni boshqarish. – T.: Yangiyo‘l, 2007.

uchun talab qilinadigan zarur miqdordagi xodimlar bilan ta'minlashdan iborat bo'ladi.

Korxona falsafasi - bu firmaning ichki tamoyillari va o'zaro munosabatlar qoidalarining yig'indisi, ixtiyoriy rioya etiladigan qadriyat va e'tiqodlarning o'ziga xos tizimidir.

Zamonaviy sharoitda har qanday korxonaning muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi talablaridan biri uning tashqi muhit o'zgarishi oqibatida kelib chiqadigan holatlarga tayyorligidir. Bunday o'zgarishlar korxona hayotining turli tomonlarini qamrab oladi va tahlillarning ko'rsatishicha, ularni o'zgacha holat sifatida emas, balki xo'jalik yuritishning doimiy omili sifatida ko'rib chiqish lozim.

G'arb tadqiqotchilari ilmiy ishlarining miqdori korxonaning ma'lum o'zgarishlarga tayyorgarligi va ularni boshqarishni tashkil etishga bag'ishlangan. Korxona faoliyati rivojlanishning rejalashtirilgan doimiy jarayoni sifatida qaraladigan Amerika kompaniyalaridagi boshqaruv tizimini takomillashtirish tajribasi bilan tanishib chiqish foydadan holi bo'lmaydi. Amerika kompaniyalarida vujudga kelgan o'zgarishlarni boshqarish tizimi boshqaruvning yangi usullariga tajribiy o'tishni ta'minlaydi, ammo tajribalarning ko'rsatishicha, yangi usullarning 20 foizi amalda o'z o'rnini topadi.

Bugungi kunga kelib, MDH mamlakatlarning ko'pchilik korxonalari o'ziga xos quyidagi muammolarga duch kelmoqdalar:

- sotish hajmi va undan boladigan daromadning qisqarishi;
- an'anaviy bozorlardagi qiyinchiliklar;
- rivojlanishning aniq yo'nalishlarga ega emasligi;
- yangi texnologiyalar va turdagi mahsulotlar uchun zaxiralarning etarli emasligi;
- moliyaviy qiyinchiliklar;
- boshqaruv usullari va tizimlarining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklar;

Yuqorida texnologiyalarning rivojlanishi va texnika murakkabliklarining ortishi bilan tashabbuskor va o'z ishiga ijodiy yondashuvchi ishchi-xodimlarga

ehtiyoj ortib bormoqda. Hozirgi kunda malakali ijrochilar emas, balki o'z kompaniyasi kelajagi haqida o'ylovchi, o'z korxonasi va davlati taqdiri uchun mas'uliyatli mutaxassislar har doimgidan ko'proq zarur.

Korxona mafkurasi chuqur o'zgarishlar davrida, o'z faoliyatini jadallashtirish, rivojlanishda yangi bosqichlarga ko'tarilish, ishchi-xodimlarni safarbarlikka chorlash va birlashtirish talab qilinganda muhim ahamiyat kasb etadi.

- **Buyuk Britaniya tajribasi.** Mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan turizm sanoati, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni, birinchi navbatda, aholining ishga joylashishi bilan bog'liq muammolarni hal qilish yordam beradi. Avvalo, ushbu mamlakatda kadrlarni tayyorlashda birinchi navbatda professional ta'lim va malakali xodimlariga alohida e'tibor beriladi. Jumladan, 2008 yilda Kornell universitetida o'tkazilgan bir tadqiqot dunyoning turli mamlakatlarida mehmonxona sanoatining 243 ta katta va o'rta korxonalar o'rtasida mehmonxona sanoati uchun beshta quyidagi asosiy omillarni aniqlash imkonini berdi:

- kadrlar;
- umumiy iqtisodiy vaziyat;
- xarajatlarni oshishi;
- xizmat darajasi;
- raqobat.

Eng muhimi, kadrlar muammolari ushbu omillar orasida birinchi o'rinni egalladi. Hamda ushbu mamlakatda insoniy munosabatlar asosidagi boshqaruvning quyidagi unsurlari mavjud bo'ladi:

- xodim shaxsiyatining hurmat qilinishi;
- har bir xodimning muammolari va qiyinchiliklariga nisbatan e'tibor;
- to'liq va chin dildan ikki tomonlama fikrlar almashinuvi;
- xodimlarni motivatsiyalash, ularning intilishlarini e'zozlash va yutuqlarini rag'batlantirish;
- tizimli o'qitish va malakasini oshirish.

- **Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSH) tajribasi.** AQSHda xodimlarni tayyorlash bilan 1500 ta oliy ta'lim muassasalari band bo'lib, yiliga taxminan 240 ming biznes bo'yicha bakalavrlar tayyorlanishadi. O'qitish uchun yiliga 60 mlrd. AQSH dollari sarf etiladi, jumladan, 13 mlrd. dollar malaka oshirish uchun ishlatiladi.

Amerikaliklar iqtisodiy bilimlarni berishmaydi. Ameiikaliklarning aksariyat qismi iqtisodiy tizimlar mohiyatini va mehnat unumdorligining hayot darajasi va bandlik kafilligi uchun qanday ta'sir ko'rsatishini anglashmaydi. AQSHda Gerni Ford personal bilan ishlashda qator qoidalarini ishlab chiqqan va tadbqiq etgan:

- bevosita ish joylarida o'qitish;
- yuqori minimal mehnat haqi;
- kompaniyada uzoq ishlash muddatiga shaxsiy haq qo'shimchalarini to'lash;
- hayotiy darajani o'stirish uchun rag'batlar yaratish;
- ishchilarning kompaniya foydalarida ishtirok etishi;
- PR ijtimoiy ta'minotni moliyalashtirish;
- ishchi kadrlarning ketishini kamaytirish.

- **Yaponiya tajribasi.** Yapon tizimining o'ziga xos xususiyati mashhur "umrbod yollanish"dir. Bunda xodim o'quv yurtini tamomlagandan keyin tashkilotga ishga kirgach, uni butun mehnat hayoti mobaynida tark etmaydi. Inson resurslarini boshqarishning butun tizimi mazkur tamoyilga bo'ysundirilgan. Masalan, mehnatga haq to'lash tizimi shunday tuziladiki, xodim oladigan daromadning anchagina qismi kompaniyadagi ish stajiga bog'liq va har yili muayyan miqdorda ortib boradi.

Yapon korxonasi - faqat xodimlar birgalikda mehnat qilish uchun birlashadigan iqtisodiy tizim bo'lib qolmasdan, shu bilan birga, o'zaro majburiyatlar bilan yagona "ishlab chiqarish oilasi"ga bog'langan hamfikrlarning ijtimoiy hamjamiyatidir. Ish bilan bandlar, ya'ni "bolalar" o'z sadoqatlarini doimiy ravishda namoyish qilishlari va "o'zlarini butunlay jonajon oilaga bag'ishlashlari" kerak, astoydil mehnat qilishlari va firmalari farovonligini birinchi o'ringa qo'yishlari lozim. Buning uchun "otalar" ma'murlarning g'amxo'rliklari

tufayli ular ish bilan, yaxshi turmush sharoiti va doimiy ortib boruvchi daromad bilan ta'min etiladilar.¹¹

Jamoaviylik, yetakchiga bo'ysunish va kattaga hurmat. Kichik kattaga minnatdorchilik bildiradi, katta kichikning hurmatini qozonadi. "Ringi" tamoyili quyi pog'onadagi xodimlarning fikrini bilish an'aanaviy hurmat hisoblanadi. Yapon kompaniyalarining umumiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- barcha, shu jumladan, ishchilar uchun ham tushunarli maqsadlarni qo'yish;
- paternalizm, ya'ni xodimlarda yagona oila tuyg'usini shakllantirish;
- umrbod yollash, xodim umrining oxirigacha ishga qabul qilinadi;
- yoshi va lavozimi bo'yicha kattaga hurmat va unga bo'ysinish;
- personal uchun imtiyozlarning yo'qligi.
- muloqot uchun muhit yaratish va tashabbuskorlarni rag'batlantirish.

- **Fransiya tajribasi.** Texnik rivojlanish darajasi, qaysi tarmoqqa mansubligi, korxonalarning hajmi, shuningdek, boshqarish an'analari va tashkil etish madaniyatiga qarab, hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan tashkilotlar, ularning xodimlar va kadrlar siyosatiga munosabati tipi bo'yicha tasniflash mumkin. Masalan, fransuz tadqiqotchilarining fikriga ko'ra, hozirgi zamon korxonalarini quyidagi tiplarga ajratish mumkin va ular o'ziga xos madaniyati bilan farq qilib turadi.

- "Nimjon" madaniyat tashqi muhit o'zgarishlari bilan qiziqmaydigan davlat korxonalari uchun xos. Xodim ishga yaxshi qiziqmaydi, bunga mazkur korxonalarning tuzilishi, rasmiyligi, konformizmi va munosabatlarning noaniqligi sabab bo'ladi.

- "Boshqoq teruvchilar" bular asosan mayda va o'rta korxonalar bo'lib, ularning strategiyasi voqeaga bog'liq. Bu korxonalar tizimining asosi rahbarga hurmat va ehtirom bilan qarashdir. Odatda, ular qiyin ahvolda qolgan bo'ladilar va buning oqibatida xodimlarni qiziqтира olamaydilar.

- "Poliz" madaniyati – bu fransuz korxonalari uchun xos bo'lgan andozdadir. Bu teylorizm prinsiplariga muvofiq piramida tuzilishiga ega. Bunday korxonalar

¹¹ Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti (nazariya va amaliyot). Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. -T.: Mehnat, 2004. - 362 b.

an'anviy bozorda ustun mavqega ega bo'lishga intiladi, o'tmishda sinab ko'rilgan andozalardan foydalaniladi va ularga qisman o'zgarishlar kiiitiladi.

- "Fransuz bog'i" madaniyati - poliz madaniyatining amerikacha tajriba ostida birmuncha o'zgartirilgan variantidir. Yirik mashhur korxonalarda tarqalgan bo'lib, ular byurokratlashgan tuzilmaga ega bo'ladilar.

Xodimlarni boshqarish umumkorporatsiyaviy tizilmadagi kichik tizimdan iborat bo'lib, uning o'zi murakkab tizim hisoblanadi. Xodimlarni boshqarish tizimi chet el va O'zbekistondagi ilg'or tajribalarga tayanib shaldlantirish, foydalanish, barqarorlashtirish va boshqarishning o'zini (rejalashtirish, hisobga olish, baho berish va rivojlantirish) qamrab oladi.

Xodimlar sonining korxonaning ilmiy asoslangan ehtiyojlaridan oz va ko'p tomonga o'zgarishi mehnat potensialining darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Buning ma'nosi shuki, xodimlarning tanqisligi va ortiqchaligi mehnat potensialiga bir xilda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi, xodimlarning etishmasligi ishlab chiqarish potensialidan etarli ravishda foydalanmaslik va xodimlarning haddan tashqari band bo'lib qolishiga olib keladi.

Xodimlarni ortiqcha saqlash esa ularning shaxsiy potensialidan etarli foydalanmaslikka sabab bo'ladi. Xodimlarni o'qitishda xodimlar malakasining fan, texnika va iqtisodiyotning zamonaviy talablariga mosligining asosiy usuli sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, Amerika, Yaponiya va Yevropa menejmenti tajribalarini o'rganish rahbarlar va mutaxassislar malakasini oshirish tamoyillarini quyidagi yo'nalishlarda ifodalab berish imkonini beradi:

- tinglovchining inson faoliyati sohalari (boshqaruv, iqtisodiy va boshqalar);
- keng ko'lamdagi o'quv modullari asosidagi maqsadli va jadal sur'atdagi tayyorlov;
- faol o'qitish uslublarini umumiy fondning 60-75 foiz ko'rsatkichiga qadar keng qo'llash;
- yuqori malakali, qimmatli pedagoglarni jalb qilish va o'qitish jarayonini o'qituvchining shaxsiyatiga qaratish;

- tinglovchilar bilan moslashuvchan aloqa;
- tinglovchilar salohiyatini kompleks baholash;
- individual-guruh o'qitish uslubi.

1.3. Turizm sohasida kadrlar va ularga qo'yiladigan talablar

Bugungi kunda turizm sohasida kadrlarga ularning bajaradigan vazifalaridan kelib chiqib talablar qo'yiladi. Kadrlarga bo'lgan talab bevosita kadrlar tizimiga bog'liq bo'ladi. Chunki, kadrlar tizimi ijtimoiy-iqtisodiy tizimning markaziy va ancha murakkab tashkil etilgan kichik tizimidir. U mazkur tizim o'z ichiga kadrlar bilan bog'liq mehnat potentsiali, uning turli tarkibiy qismlari bo'lgan kadrlar, ularning maqsadlari, faoliyat ko'rsatish va rivojlanish normalari hamda mexanizmlarini qamrab oladi.

Avvalo, kadrlar tizimi turli sohalardagi kadrlarga tegishli bo'lib, har bir sohadagi kadrlar bilan bog'liq jarayonlarni qamrab oladi. Ular ko'p talablarga javob berishi kerak. Jumladan, turizm kadrlari turizmni yaxshi biladigan va ko'p yil ishlagan mutaxassislariga aytiladi. Bu menejerlar, marketologlar, biznesmenlar, mutaxassislar hamda turli sohalarda ishlaydigan ishchi xodimlarga bo'linadi.

Shu boisdan ham, kollejlarda talabalar amaliyoti tashkil qilinib, u o'quv va ishlab chiqarish amaliyoti turlariga bo'linadi. Ushbu amaliyot turlarining kollejlarda tahsil olayotgan o'quvchilar uchun ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati katta rol o'ynaydi. Jumladan, har bir amaliyot o'quv dasturida keltirilgan mavzular asosida talabalarga dars mashg'ulotlari olib boriladi. O'quv amaliyoti dasturida har bir fanga tegishli bo'lgan barcha mavzular bo'yicha o'quvchilarga Davlat ta'lim standartlari asosida etkazilishi shart bo'lgan minimum bilimlar va ko'nikmalar to'la qamrab olingan bo'ladi.

Darhaqiqat, turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash masalasi ta'lim sohasidagi amalga oshiriladigan islohotlar namunasi sifatida namoyon bo'lib, kelajakda turizm sohasida ishlaydigan talabalarni har tomonlama aqlan, ma'nan, jismonan etuk qilib tarbiyalashni, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va

ragʻbatlantirishni, boshqa kadrlardan bilimi va iqtidori bilan farq qilish kabi mezonlar bilan toʻla namoyon boʻladi.¹²

Turizm sohasini rivojlantirish avvalo, turizm sohasidagi hamkorlikning samarali yoʻlga qoʻyilishi va kadrlar tayyorlashning sifatiga chambarchas bogʻliq. Turizm sohasidagi kadrlarning asosida kishi, yaʼni “inson omili” yotadi hamda uning rivoji taʼlim sohasining taraqqiyoti bilan bogʻliq.

Iqtisodiy hayot subyekti sifatidagi inson toʻgʻrisidagi tasavvurlarning uzoq vaqt mobaynida rivojlanishi natijasida bir qator tushunchalar: “ish kuchi”, “mehnat resurslari”, “mehnat potentsiali”, “inson omili”, “inson kapitali” tushunchalari vujudga keldi.

Boshqaruv amaliyotida “xodimlar”, “kadrlar”, “mehnat resurslari” kabi boshqaruv obyektlarini koʻrsatish mumkin. Ushbu tushunchalarni turli jihatdan aniqlashtirish mumkin. Maʼmuriy boshqaruv xodimlari deganda kasb faoliyati boʻyicha boshqarish maqsad va vazifalarini amalga oshirish bilan bogʻliq boʻlgan xodimlar va rahbarlar tushuniladi.¹³

Maʼmuriy boshqaruv xodimlari tushunchasi quyidagi ikkita masala yaʼni, xodimlar siyosati va xodimlar bilan ishlashga bogʻliqdir. Xodimlar siyosati deganda bu uzoq davrga moʻljallangan tegishli malaka, tajriba, kasb va shaxsiy sifatlarga ega boʻlgan yuqori malakali boshqaruv xodimlari taraqqiyoti bilan bogʻliq masala tushuniladi. Xodimlar siyosatining maqsadi xodimlarni tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlashdan iborat.

Mamlakatimiz va xorij olimlarining fikrlarini tahlil qilgan holda xodimlar va kadrlar oʻrtasida mavjud boʻlgan quyidagi xulosalarni keltirish mumkin.

“Xodimlar” - soʻzi yigʻma maʼnoga ega, malakaviy xususiyatlar boʻyicha birlashgan, korxona, muassasalarning shaxsiy tarkibini anglatadi hamda bir qancha xodimni oʻz ichiga birlashtiradi.

¹² Aminova M., Xudayberganov D. Turizm sohasida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalalari. // “Turizm infratuzilmasini rivojlantirishning metodologik, uslubiy asoslarini takomillashtirish” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. - Samarqand, 23-24 aprel. 2014 yil. - 498 b.

¹³ <http://uz.denemetr.com/docs/768/index-75949-1.html?page=11>

“Kadrlar” - korxonalar, muassasalar yoki malakali guruhlarining asosiy tayyorlangan ishchilar tarkibini tashkil qiladi. Demak, har ikki tushunchani ham ekvivalent deb qabul qilish mumkin bo‘ladi.

Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib, bizning fikrimizcha, “inson resurslari” yoki “mehnat resurslari” ma’nosini yuqoridagi tushunchalardan ko‘ra kengroq ma’noda yoritish mumkin bo‘ladi. Chunki, ularning o‘rtasida katta farqlar, qarashlar, mazmun va mohiyat hamda shart-sharoitlar mavjud bo‘ladi.

1.3.1-jadval

Iqtisodiy hayot subyekti to‘g‘risidagi tasavvurning rivojlanishi¹⁴

Kategoriya-lar	Foydalanish davrlari	Inson haqidagi tasavvurning aks ettirilishi	Vujudga kelish omillari
Ish kuchi	XIX asr va hozirgi davr	Inson - mehnat jarayonidagi unumli foydalanish mumkin bo‘lgan qobiliyat va sifat egasi sifatida	Ishlab chiqarishning shaxsiy omilini belgilash va hisobga olish zarurligi
Mehnat resurslari	XX asr 20-yillari va hozirgi vaqt	Inson - tashqi boshqaruvning passiv obyekti, rejalashtirish va hisoblash birligi sifatida	Iqtisodiyotni markazlashgan boshqaruv sharoitida ishchi kuchini takror ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini o‘lchash zarurligi
Mehnat potentsiali	XX asr 70 -80 yillari va hozirgi vaqt	Inson - mehnat sohasidagi o‘z ehtiyojlari va qiziqishlari bilan ajralib turuvchi subyekt sifatida	Shaxsiy omil bilan bog‘liq imkoniyatlarni faollashtirish va samarali foydalanish
Inson omili	80-yillar oxiri, 90 - yillar boshi va hozirgi vaqt	Inson - ijtimoiy ishlab chiqarishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi, uning unumdorligini oshirish vositasi	Ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlar, shaxsiy omil samaradorligini oshirish zarurligi
Inson kapitali	90-yillar boshi va hozirgi vaqt	Inson - eng samarali qo‘yilmalar obyekti va ularni bilimlar majmuiga aylanti ruvchi va bundan keyin undan foydalanishni maqsad qilib qo‘ygan subyekt sifatida	Insonning asbob yasash qadriyatini va inson iqtisodiyotiga sarflangan investitsiyalarning ishlab chiqarish xususiyatini e’tirof etish

¹⁴ Abdurahmonov K.X. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. – T.: Mehnat. 2004. - 339-340 b.

Jadvalda ushbu tushunchalar paydo bo'lish vaqtiga va faol ishlatila boshlashi bo'yicha xronologik izchilligiga muvofiq tarzda keltirib o'tilgan. Hamda unda keltirilgan chora-tadbirlar haqida Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda, "Bugungi kunda ta'lim sohasidagi barcha sa'y-harakatlarimizning dastlabki quvonchli mevasi sifatida bir necha xorijiy tillarda erkin gaplasha oladigan va shu bilan birga, o'z fikrini ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta oladigan yangi mutaxassislar avlodini ko'rganda, hech shubhasiz, yurtimizdagi har bir ota-ona, ustoz-murabbiyning, ezgu niyatli har qaysi insonning qalbi g'urur-iftixor tuyg'ulariga to'ladi.¹⁵

Darhaqiqat, turizm sohasidagi kadrlar tayyorlash masalasini o'rganish barqaror rivojlantirish asosida borishi lozim. Bu holat bugungi kunda o'ta muhim masala bo'lib qolmoqda. Avvalo, turizm sohasida kadrlar tayyorlash mehmonxonada xodimlarni boshqarish bu ayrim xodimlarga mehmonxona maqsadlariga erishish uchun tashabbuskorlik bilan, ongli, ijodiy mehnat qilishga eng maqbul sharoit yaratish maqsadida jamoaga sobit-qadamlik bilan har tomonlama ta'sir o'tkazish hisoblanadi.

Mehnat resursi - mehnatga qobiliyatli yoshdagi aholining (ayollar 16-55 yoshda, erkaklar 16-60 yoshda) sonida o'z ifodasini topadi. Bu yoshdagi nogironlik va boshqa sabablar bilan ishlamaydiganlar mehnat resursiga kirmaydi. Demak, mehnat resursi aholining ma'lum chegaralangan yoshdagi ishlay oladigan faol qismi tushuniladi.¹⁶

Shunday qilib, turistik korxonalarda ishlayotgan insonlar har uchala talqinda boshqaruv obyekti bo'lishi mumkin. Asosiysi, ularning hammasi hamjihatlikda pirovard natijaga erishish maqsadida yagona ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish tizimi doirasida faoliyat ko'rsatishadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bilimdon ishbilarmon xodimlarni shakllantirish muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Korxona va tashkilotlardagi resurslar

¹⁵ Birinchi Prezident I.A.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha O'quv qo'llanma. - T., 2012. -126 b.

tarkibida inson omillari muhim ahamiyat kasb etadi. Turistik korxonalarda xodimlar faoliyatini tashkil etish juda murakkab jarayon bulib, buning uchun rahbar-xodimlar yetarli bilim va malakaga ega bo'lishi lozim. Chunki, xodimni boshqarishni yaxshi o'rganish uchun talabalardan boshqaruv bo'yicha chuqur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi.

Darhaqiqat, turizm sohasida kadrlarni o'rganishdan maqsad turistik korxonalarda xodimlar faoliyatini tashkil etishning o'ziga xosligi va bu jarayondagi vujudga keladigan muammolarni hal qilish yo'llarini o'rgatish hamda ularda rahbarlik, tashkilotchilik faoliyatiga ishtiyoqini shakllantirish hisoblanadi. Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish lozim:

- bozor iqtisodiyoti sharoitida turistik korxonalarda xodimlarni boshqarish;
- inson omilini rolini yanada oshirish;
- xodimlarni xizmat-kasb jihatidan ko'tarilishini tashkil etish va boshkarish hamda kadrlar innovatsiyasi;
- mehnat etikasi, xodimlar xavfsizligini ta'minlash hamda turistik korxonalarda xodimlarni boshkarishni ilmiy asosda tashkil qilish kabilarini amalga oshirish;
- kadrlarning etarlicha bilim va ko'nikmalarini shakllantirish va h.k.

Avvalo, katta mehnat sarfini talab qiladigan turizm korxonalarida insonlar uning eng muhim aktivi hisoblanadi. Binobarin, ularni boshqarish mazkur qudratli aktivlarni muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi, korxonalarining boshqaruvi tizimi va uslubini rivojlantirish jarayoniga katta hissa qo'shadi.

Ko'pgina turizm korxonalarida xodimlarni korxonaning yordamchi komponenti deb hisoblab, ularni boshqarishda tegishli darajada e'tibor berilmaydi. CHunki, turizm korxonalarida xodimlar korxonaning, pirovard mahsulotning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi va buning uchun korxonalar mijozlardan haq oladi. Masalan, mehmonxonada mehmon nafaqat yashash, xavfsizlik, tozalik uchun, balki mehmonxona xizmatchilarining e'tibori uchun ham haq to'laydi.

¹⁶ Pardayev M.Q., Abdukarimov B.A. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. - Samarqand, 2002. - 19 b.

Shu bilan birga, turizm sohasida kadrlar tayyorlash borasida mamlakatimizda sayyohlik sohasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Ushbu sohada kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, samaradorligini oshirish, xizmat ko'rsatish, sayyohlik va mehmonxona biznesi va menejmenti yo'nalishi bo'yicha xalqaro kadrlar tayyorlash borasida keng qamrovli ishlar olib borildi. Iqtisodchi kadrlar tayyorlashda ta'lim xizmati taklifi va iqtisodiyotning ushbu kadrlarga ehtiyoji o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni ta'minlash jarayoni, uning ko'lami va nisbatlari milliy iqtisodiyot innovatsion taraqqiyot yo'liga o'tishi tufayli o'zgarib boradi.¹⁷

Bugungi kunda turizm sohasida faoliyat ko'rsatadigan kadrlarga bir qator talablar qo'yiladi. Xususan, kadrlarning intellektual qobiliyati quyidagi ijobiy xislatlarga ega bo'ladi:

- zehni;
- abstrakt fikrlash qobiliyati;
- menejning harakatlariga munosabati;
- fikrlash darajasi;
- muzokara olib borish qobiliyati.

Kadrlarning so'zlashish uslubi quyidagi belgilarga ega bo'ladi:

- topqirlik;
- ko'p so'zlilik;
- o'z fikrini aniq bayon etishi;
- so'zlashish madaniyati.


Hamda turizm sohasida faoliyat yuritadigan xodimning kasbga doir vazifalarni bajarish qobiliyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- korxonaga kelgandagi o'zi ega bo'lgan potentsiali;
- korxonada oladigan kasbga doir ta'limi;
- uning jismoniy va ma'naviy ahvoli;
- xodimning korxonadan olgan bahosi.

¹⁷ Qahhorov O. Oliy ta'lim tizimida iqtisodchi kadrlar tayyorlash va boshqaruv jarayoniga ta'sir etuvchi omillar. // "Biznes-ekspert" jurnali. 2017 yil №2. – 68 b.


Xodimlarni boshqarishning tabiati biznesning samaradorligi va uning muayyan aʼzolari yutuqlarini belgilashi lozim. Bunda maʼnaviy muhit va mehnatdan qanoatlanishni his qilmaydigan foydani hisobga olish kerak. Xodimlarni boshqarish xizmatining oqilona siyosati xodimlar hulq-atvori, malakasi va korxonaning samarali faoliyatiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

Turizm sohasida hozirgi paytda 100 tadan ortiq kasb egalari mavjud boʻlsada, ammo bu sohada turli mutaxassislarga boʻlgan talab hozirgacha toʻla qondirilmagan. Bu holatni Xorazm viloyatidagi 5 ta turizm korxonalari boʻyicha turizm sohasi mutaxassislarga boʻlgan talabni oʻrganish maqsadida oʻtkazilgan ijtimoiy soʻrovnoma natijalari ham yaqqol koʻrsatmoqda (1.3.1-rasm).



1.3.1-rasm. Xorazm viloyatidagi mehmonxonalarda mutaxassislarga boʻlgan talab¹⁸

¹⁸ Oʻtkazilgan ijtimoiy soʻrov natijalari



1.3.2-rasm. Xorazm viloyatidagi turistik firmalarda mutaxassislarga bo'lgan talab¹⁹

Rasmlardagi ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, hozirda turizm korxonalari ko'pincha ichki va tashqi turizm bo'yicha menejerlar, aviachiptalar, temir yo'l chiptalari, mehmonxonalarni bronlashtirishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlay oladigan mutaxassislarni jalb qilishga xarakat qilishmoqda. Zamonaviy internet texnologiyalarning rivojlanishi turizm sohasidagi xodimlardan ushbu sohani yaxshi bilishlarini va ish faoliyatlari jarayonida yangi bronlashtirish tizimlari, innovatsion texnologiyalarni qo'llashlarini talab qilmoqda.

Turizm korxonalarining uzoq muddatli istiqbolida xodimlardan biznesning bosh strategiyasi sifatida foydalanishning samaradorligini oshirishga e'tibor kuchaymoqda. So'nggi yillarda mehnat resurslari bilan bog'liq jarayonlar, ular faoliyati oldida turgan muammolar, huquqlari va kelajagi haqida ko'p yozilmoqda.

Kadrlarni tanlash va joylashtirish strategiyasi, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish strategiyasi, shuningdek, xodimlar mehnat faoliyatining motivatsiyasi strategiyasi korxonalarning muhim strategiyalaridan hisoblanadi.

Ichki zahiralardan foydalanishning majmuali strategiyasi korporativ madaniyatni shakllantirish bilan uyg'unlashib, asosan o'z ishchilari imkoniyatini jalb qilishga mo'ljallanadi.

Turistik korxonada xodimlarni rivojlantirishning majmualiy tizimini qo'llash maqsadga muvofiq, chunki u quyidagi imkoniyatlarni yaratib beradi:

- xodimlar sifati va malakaviy darajasini doimiy nazoratini tashkil qilish, ularning tarkibi va malakasi haqida ma'lumotlar bazasini yaratish;
- xodimlarni butun mehnat faoliyati davrida o'qitish;
- o'quv-uslubiy materiallar yaratish va undan oqilona foydalanish;
- kadrlarni tanlash va ular harakatini rejalashtirish;
- kadrlar masalasi bo'yicha oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun xodimlar sifati baholash negizida zaruriy axborotlarni tayyorlash;
- mansab pog'onasida o'sish masalasida ularga tegishli maslahatlar berish va h.k.

Turizm xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish yo'llari sifatida turizm korxonalarida kadrlarni optimal tanlash loyihasini ishlab chiqishni taqozo qiladi. Ushbu loyiha tarkibida yangi xodimlarni ishga qabul qilishda lavozim profilini ya'ni, talablari majmuasini shakllantirishga to'g'ri kelmoqda, bunda talab etiladigan zaruriy bilimlar ko'nikmasi, tajriba va malakani aniq ko'rsatish lozim bo'ladi.

Turistik korxonalarda xodimlarni tanlash quyidagi tartib bo'yicha amalga oshiriladi:

- nomzodlarning shaxsiy hujjatlarini o'rganish;
- nomzodlarning fotosuratini tahlil qilish;
- turizm korxonasidagi ishi haqida insho yozishni taklif etish;
- birinchi suhbatdan o'tkazish;
- test o'tkazish yoki ikkinchi suhbat, korxona rahbarlari qatnashadigan guruhli intervyuni tashkil etish.

Hamda xodimlarni tanlash jarayonida quyidagi savollarga javob topish kerak bo'ladi:

- nomzodlar etarlicha bilim va malakaga egami?

¹⁹ O'tkazilgan ijtimoiy so'rov natijalari.

- yetarli darajada rag‘batlantirilganmi?
- nomzodlar qay darajada korxonaga to‘g‘ri keladi?

Xodimlarni tanlab olishda baholash mezonlaridan foydalanish lozim. Bunda quyidagilarga e‘tibor berish kerak:

- ma‘lumoti va xizmat ko‘rsatish sohasidagi tajribasi;
- xulq-atvori;
- maqsadga intiluvchanligi;
- intellektual qobiliyat;
- so‘zlash uslubi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida 2006-2010 yillarda servis va xizmatlar sohalarini rivojlantirishni jadallashtirish bo‘yicha tadbirlar to‘g‘risida”gi Qaroriga asosan hamda “Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi”da belgilanganidek va o‘quv jarayonini amaliyot bilan bog‘lagan xolda ta‘lim xizmatlarini amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining ruxsati bilan Samarqand iqtisodiyot va servis instituti qoshida turizmni rivojlantirish ilmiy-o‘quv markazi tashkil etilgan.

Turistik korxonada taklif etiladigan xizmatlarning raqobatdagi ustunligiga faqatgina kadrlar salohiyati rolini oshirish orqali jamoa har bir a‘zosining malakaviyligi, nostandart vaziyatlarda mas‘uliyatni bo‘yniga olib, ish tutishi orqali erishish mumkin. Buning uchun malaka oshirishning “rotatsiya” usuli, ya‘ni xodimlarni gorizontaal yo‘nalishda har xil lavozimlarga ko‘chirib turish ham yaxshi natija beradi.

Turizm biznesining ijtimoiy muammolari muhimligini tan olib, kadrlar masalasini muhim ustunliklarining strategik jihatini belgilashdan ularni amalga oshirish taktikasiga o‘tish muhim. Kadrlar menejmenti muvaffaqiyatiga turizm servisi xodimlarini o‘qitish va malaka oshirishni majmualii dasturini joriy etishda qattiq kirishib ishlash orqali erishiladi.

Zero, kadrlar tayyorlashda boshqaruv quyidagi asosiy funksiyalarni o‘z ichiga oladi:

- har tomonlama nazorat, tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish;
- kadrlarni joy-joyiga oqilona qo'yish, vazifalarni taqsimlash, kichik tizimlar o'rtasida aloqalar o'rnatish;
- ta'limga oid axborot tizimini tashkil etish va undan foydalanishning samaradorligini ta'minlash;
- sohaga doir innovatsiyalardan maksimal darajada foydalanish;
- o'quv yurtlari faoliyatini prognoz qilish va rejalashtirish, maqsadlarni to'g'ri qo'yish va h.k.

1-bob bo'yicha xulosa

Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishda kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosiy me'yoriy hujjat hisoblanib, dasturning ijrosini ta'minlash chora-tadbirlaridan biri ta'limning fan hamda ishlab chiqarish bilan integratsiyasi ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladigan muhim omil bo'lib ham xizmat qiladi. Kadrlar tayyorlash tizimi tubdan isloh qilinib, oliy ta'limni boshqarish metodologiyasining asosi sifatida bir qator vazifalarni bajarib kelmoqda.

Ushbu dastur doirasida kadrlar tayyorlash bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribalari to'plangan va respublikamizda ulardan samarali foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Xorijiy mamlakatlarda xodimlarni o'rganishga bo'lgan yondashuvlar asosida Buyuk Britaniya, AQSH, Yaponiya va Fransiya mamlakatlarida kadrlar, ya'ni kelajakda ishlaydigan xodimlar bilan munosabatlar takomillashgan. Shuningdek, xodimlarni boshqarish uslubi va tamoyillari ishlab chiqilgan.

Rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan kelib chiqib, turizm sohasida kadrlarga qo'yiladigan talablar shakllangan. Bugungi kunda ushbu talablar o'z navbatida ijobiy va salbiy ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Mazkur talablar kadrlarning intellektual qobiliyati, so'zlashish uslubi va kasbga doir vazifalarni bajarish qobiliyati kabi yo'nalishlar asosida belgi va mezonlarga ajratiladi.

II-BOB: TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHNING HOLATI VA MUHIM XUSUSIYATLARI

2.1. O‘zbekiston turizm sohasida kadrlar tayyorlash muammolari

Turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash, turizm infratuzilmasini takomillashtirish, servis va xizmat ko‘rsatishning rivojlanishi ko‘plab yangi ish o‘rinlari ochilishiga zamin yaratadi. Bu esa o‘z navbatida O‘zbekiston iqtisodiyotidagi mavjud muammolarni hal qilishda muhim o‘rin egallaydi.

O‘zbekiston turizmni rivojlantirishning mamlakatimiz hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahamiyatini anglagan holda, ma’sul hokimliklar turizmda kadrlar tayyorlash masalalari bo‘yicha o‘z taklif va tavsiyalarini bildishlari zarur. Asosiy yo‘nalishlaridan biri - hududiy iqtisodiyot, ijtimoiy infratuzilma hamda mehnat resurslarini mutanosib tarzda rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, shu asosda hududiy bandlik siyosati samaradorligini ta’minlashdan iborat.

Bugungi kunda, O‘zbekistonda turizm sohasini holatini tahlil qilish davomida ko‘plab hal qilinishi lozim bo‘lib turgan quyidagi muammolarning mavjudligini ko‘rish mumkin:

- O‘zbekistonda mavjud ayrim turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi mehmonxonalar xizmat ko‘rsatish sifatini pastligi va mutaxassislar yetishmasligi;
- mehmonxonalarda vaqti-vaqti bilan issiq suv va elektr energiyasining o‘chib turishi;
- umumiy ovqatlanish korxonalari xizmatlarining (buyurtmani o‘z vaqtida keltirilishi, sifati) talab darajasida emasligi;
- transport xizmati ko‘rsatuvchi korxonalarning kamligi yoki shaxsiy avtotransport vositalarini ijaraga beruvchi tashkilotlarning yo‘qligi;
- sifatli aloqa telefon, faks va internet kabi tezkor aloqa xizmatlari yaxshi emas yoki umuman yo‘qligi;
- tumanlarda turistik firma va tashkilotlar sonining kamligi yoki ayrim tumanlarda umuman yo‘qligi;

- turizmda xizmat ko'rsatuvchi malakali kadrlar va mutaxassislarni yetishmasligi.

Ushbu muammolar bilan bir qatorda O'zbekistonga kelayotgan sayohatchilar internet orqali u yerda mavjud mehmonxonalarni yuqori narxdaligi haqida ma'lumot oladi va bundan norozi bo'lishadi.

O'zbekistonning turizm sohasidagi eng asosiy masalalardan yana biri O'zbekistondagi tarixiy-me'moriy obidalar tomosha qilishga kelayotgan turistlarni yil davomidagi aniq ko'rsatkichi yo'q.

Respublika turizmida mahalliy sayyohlarning roli alohida, viloyatga mamlakatning turli hududlardan kelayotgan turistlar rasmiy holda hech qaysi joyda ro'yxatdan o'tmaydilar. Faqatgina tarixiy obidalarga kirish joylarida chiptalarni sotish bilan shug'ullaniladi.

O'zbekistonda tarixiy-me'moriy obidalarining ko'pligi sababli kelayotgan turistlar faqat ayrim hududlardagi obidalarini ko'rib qaytadilar. Albatta, bu obidalar boy va o'lmas meros, ammo ba'zi tarixiy yodgorliklarning bunyod etilganiga uzoq davr bo'lgan. Shu bois, ayni paytdagi imkoniyatlardan unumli foydalangan holda viloyat tog' va tog' oldi zonalarida ekoturizm va rekreatsion resurslarni ishga solgan holda asta-sekin xorijiy turistlarni go'zal tabiat qo'yniga jalb etish zarur.

Hozirgi jadallik bilan rivojlanib borayotgan turizm asrida O'zbekistonda turizmga malakali kadrlar juda zarur. Ayniqsa, ularni zamon talablariga javob beradigan qilib tayyorlash, jahon turizm bozorida raqobatlasha oladigan turagent va turoperatorlarni etishtirish O'zbekistonga yanada ko'proq xorijiy turistlarni kirib kelishini ta'minlaydi.

Ma'lumki, O'zbekistonga kelayotgan sayoxatchilarning asosiy qismi nafaqa yoshidagi kishilar hisoblanadi. Demak, ular juda puldor kishilar emas, shuning uchun bunday sayyohlar ovqatlanish uchun katta restoranlarga kirmaydi. Aksincha, ular kichik, ozoda, arzon, sifatli xizmat ko'rsatadigan milliy choyxona, oshxona va kafelarni qidirishadi. Shularni hisobga olib, tarixiy obidalar joylashgan hududlardagi umumiy oshxonalarni huddi Toshkent shahri Chorsu bozoridagi ovqatlanish rastalari singari milliy tusga kiritish zarur.

O'zbekistonga kelayotgan sayohatchilarni xavfsizligini ta'minlash eng asosiy masaladir. Biroq, shahar ko'chalarida yurgan tovlamachilar va lo'lilarni turistlarga sayohat davrida to'satdan "pul so'rab" yopishib olishi, mehmonlarni xurkitib yuborishi mumkin. Shuning uchun, shahar ichida iloji boricha bunday holatlarni kamaytirish kerak.

Shu kabi yuqorida sanab o'tilgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish mintaqa turizmini rivojlanishiga sabab bo'ladi. Bunday muammolarni hal qilish va turli chora-tadbirlarni ko'rishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va hokimliklar, O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi hamda shu sohaga bevosita bog'liq korxona va tashkilotlarning ko'magi kerak bo'ladi.

Buning natijasida, O'zbekistonga keladigan xorijiy sayyohlar soni yanada ko'payib, ulardan tushadigan daromad ortadi. Binobarin, sohadagi ayrim muammolarni hal qilgan holda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish, turistik tashkilotlar sonini ko'paytirish hamda qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish evaziga aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga, sohada ishlaydigan malakali kadrlarni tayyorlashga erishish mumkin bo'ladi.

Jahon tajribasi turizm sohasini rivojlantirish orqali aholi bandlik darajasi va turmush farovonligini oshirish imkoniyatlari yuqori ekanini yana bir bor ko'rsatib turibdi. Ammo, shunga qaramay, mamlakatimizning bir qator mintaqalarida turizm infratuzilmasini izchil rivojlantirishga yetarli e'tibor qaratilmayotgani ta'kidlab o'tish zarur.

Xususan, Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar mamlakatimizga keladigan xorijiy turistlar oqimining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq, malakali kadrlar tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan sohaning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammolarning mavjudligini ko'rsatadi:

- viloyatda faoliyat ko'rsatuvchi gidlar xorijiy til, asosan ingliz tilini yaxshi egallagan. Ammo viloyatga tashrif buyuruvchi Germaniya, Fransiya, Ispaniya,

Yaponiya, Xitoy va Koreya turistlari o'zlarining tillarida xizmat ko'rsatilishini afzal ko'rmoqdalar.

- Xiva shahridagi ayrim tarixiy-madaniy turistik obyektlarning mahalliy aholining xususiy mulki hududida joylashib qolganligi ushbu mavjud turistik obyektlarni xorijiy turistlar e'tiboriga havola etish imkoniyatini cheklab qo'yimoqda;

- mahalliy turoperatorlarning halqaro turistik yarmarkalarda o'zining turmahsuloti bilan ishtirok etishi juda sust bo'lmoqda. Bunda turoperatorlik firmalarining xalqaro turistik yarmarkalarda ishtirok etish sarf-xarajatlari uchun zarur valyuta mablag'larini erkin konvertatsiya qilish va qisman moliyaviy ko'maklashish o'z echimini kutayotgan muhim masala bo'lib qolmoqda;

- turistik mavsum davrida viloyatda zamonaviy mikroavtobuslarning etishmasligi, aksincha mavjudlari ham respublikaning boshqa turistik mintaqalariga xizmat ko'rsatish uchun jo'nab ketishi mahalliy turoperatorlarning turpaketlarni ishlab chiqish va realizatsiya qilishda o'ziga nisbatan ishonchsizlik tug'dirmoqda.

- ma'lumki Ko'hna Urganch qo'shni Turkmaniston Respublikasi hududida joylashgan bo'lib, viloyatga tashrif buyurayotgan turistlarning bir qismi ushbu tarixiy majmuani ko'rish istagini bildirmoqda. Buning uchun xorijiy turistlar poytaxtga borib, u yerda viza rasmiyatchiligini amalga oshirishi kerak. Xorijiy turistlar uchun viza olish jarayonini qulaylashtirish maqsadida Xorazm viloyatida O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining vakolatli bo'limini tashkil etish va shu yerning o'zida 1-3 kunlik qisqa muddatli vizalarni rasmiylashtirishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq;

- turizm yo'nalishini bitkazayotgan yosh kadrlarda turizm sohasida tajribaning kamligi, tajribaga ega emaslik va yetishmasligi sohani rivojlantirish imkoniyatini cheklab qo'yimoqda.

Bizning fikrimizcha, "Turizm" yo'nalishidagi iqtidorli talabalarning malakaviy amaliyotini xorijiy turoperatorlik firmalarida o'tashlarini tashkil etish hamda turoperatorlik xizmatlari yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda oliy

ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilarining malakasini oshirish ayni paytdagi dolzarb masala hisoblanadi.

Shular bilan bir qatorda, Xorazm viloyatida ekologik vaziyat tang holatda bo'lgan yoki noekologik vaziyat mavjud Xorazm viloyatining turizmi sohasida turizm bozorini shakllantirish borasida bir qancha muammolarning mavjudligi bilan ajralib turadi.²⁰

- viloyatda ishlab chiqilayotgan turistik mahsulotlarning reklamasi ichki va xalqaro turizmida talab darajasida emas va xorijiy turistlar viloyatga yetib kelganidan keyingi axborotlar manbasi va ta'minotidan to'la qanoat hosil qilmayapdilar;

- turistik bozorning mohiyati va faoliyatini belgilovchi turistik mahsulotni iste'molchilar talabiga mos ravishda, ularning talabidan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish va sotish jarayonlari talab darajasida tashkil qilinmagan, turistik mahsulotni ishlab chiqaruvchi mutaxassislar va maxsus tashkilotlarning yetarli emas;

- viloyat turizmida turistlarga aniq ishlab chiqilgan va litsenziyalangan turlarning kamligi, ularning reklamasi talab darajasida emasligi, turizm sohasida xizmat turlari ham yetarli emasligi;

- xalqaro turistlarga transport xizmatlarini tashkil qilish yetarli emas va gid-yo'l boshlovchi xizmatlari zamonaviy talablarga to'la javob bermaydi va boshqalar.

Turizm sohasida ishlaydigan har bir xodim korxonada faoliyat yuritir ekan, ushbu korxonaning barcha jabhalardagi rivojlanishi va taraqqiy etishi uchun mas'ul hisoblanadi.

Biroq, bugungi kunda turizm sohasida ishlayotgan xodimlar o'z mansablarining lavozim vazifalariga zamonaviy talablardan kelib chiqib javob bermaydi. Shu bilan birga, ularda quyidagi kamchiliklar kuzatilmoqda (2.1.1-jadval):

²⁰ Matyoqubov U.R. "Ekologik vaziyatni inobatga olib turizm samaradorligini oshirish yo'nalishlari va istiqbollari (Xorazm viloyati misolida)" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2011. – 12 b.

Turizm sohasida ishlaydigan xodimdagi mavjud muammo va kamchiliklar²¹

boshqaruvchilik va menejerlik amaliy ko'nikmasining yetishmasligi
mavjud muammoni tahlil qilish va yechishda zamonaviy yondashuvning yetishmasligi
tizimda amalga oshirilayotgan islohotlardan to'la xabardor emasligi
soha bo'yicha me'yoriy-huquqiy asoslarni to'la bilmaslik va qonunchilikda yuz berayotgan yangiliklardan bexabar qolishayotgani
ta'lim muassasalarida ko'pchilik rahbar va ishchi-xodimlarning ijro intizomi va o'z ishiga mas'uliyatning pastligi
jamoalar bilan ishlashda pedagogik va psixologik yondashuvning sustligi
muassasada innovatsiyalarni qo'llash tajribasining yetishmasligi
ish yuritish va hujjatlarni rasmiylashtirish tartibini tushunmaslik
kasb sohasida so'z boyligining kamligi va xorijiy tillarni yaxshi bilmaslik
kasbiy mahoratini oshirish va o'z ustida ishlashga intilishning sustligi
tadbirkorlik va iqtisodiy bilimlarning kamligi
axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish tajribasining yetishmasligi

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan xodimlar bilan bog'liq muammo va kamchiliklarning echimlari sifatida ularni tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:²²

- o'quv dasturlarini zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda takomillashtirish;

- ta'lim berish metodlarini ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan boyitish;

- mutaxassis kadrlarni tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarining infrastrukturasi va moddiy-texnika bazasini zamonaviy talablar asosida jihozlash;

²¹ Manba: Turizm sohasida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalalari. // "Turizm infratuzilmasini rivojlantirishning metodologik, uslubiy asoslarini takomillashtirish" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. - Samarqand, 23-24 aprel. 2014 yil. - 498 b.

- xorijiy tillar bo'yicha mashg'ulotlar xajmini oshirish;
- dars mashg'ulotlari tarkibida amaliy mashg'ulotlar soatlari xajmini ko'paytirish;
- mutaxassisligi bo'yicha amaliyotlar hajmini oshirish;
- o'z mutaxassisligi bo'yicha me'yoriy-huquqiy asoslar bo'yicha fan bo'limlari va mavzularga urg'u berish;
- bitiruvchi talabalarga tadbirkorlik va iqtisodiy bilimlarini oshirish imkoniyatlarini kengaytirish;
- yosh mutaxassislar o'rtasida ilmiy va innovatsion tadqiqotlarni rag'batlantirib borish;
- amaliyotda axborot qidirish, tanlab olish, tahlil etish va qo'llashning samarali va oqilona usullarini joriy qilib borish;
- yosh mutaxassislarning kasbiy mahoratlarini tizimli ravishda oshirib borish;
- axborotni yig'ish, saqlash va qayta ishlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish darajasini oshirish;
- yosh mutaxassislarning kasbiy barkamollikka va karerada o'sishga bo'lgan intilishlarini oshirish;
- bilim oluvchilarning kommunikativ malakalarini tizimli ravishda rivojlantirib borish;
- me'yoriy standartlar va ularga doir hujjatlar bilan ishlashga o'rgatish;
- ish o'rinlariga mutaxassis kadrlarni tanlov asosida tanlab olish tizimini keng joriy etish;
- ta'lim muassasalaridagi pedagoglarning o'z ustida tinimsiz ishlash, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirib borishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish.

Shuningdek, turizm sohasidagi zaruriy mutaxassislarni maqsadli ravishda izlash va ularni ishga jalb qilish zamonaviy kadrlar bozorining dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Shuning uchun ham, hozirgi kunda turizm

²² Buxoro Davlat universitetining Ilmiy axborotnomasi. 2015 yil №1. – 131 b.

sohasida malakali kadrlar salohiyatini shakllantirishning murakkabligi quyidagilardan iborat bo'lmoqda:

- turizm korxonalarida yangi vositalar va tizimlarni yaratib, yangilikni joriy eta oladigan dasturlovchilar, tizimli administratorlar, innovatsion loyiha menejerlari kabi malakali mutaxassislarning etarli emasligi;

- g'arb mijozlari uchun odatiy hisoblangan yuqori darajadagi servis ya'ni, xushmuomalalik, mas'uliyatlilik va jonkuyarlikning pastligi.

Turizm sohasidagi kadrlar bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish uchun xodimlarda, avvalo, qat'iy intizom va menejerlik qobiliyati shakllangan bo'lishi kerak. Jumladan, bo'lg'uvchi xodimda tadbirkorlik, boshqaruvchilik va muammolar yechimiga mos yo'llarni topishda topqirlik qobiliyatlari va zamonaviylik xislatlari mujassam bo'ladi hamda bevosita ushbu xislatlarga to'la rioya qilishi qat'iy talab qilinadi..

Turizm sohasidagi kadr zamonaviy xodim bo'lsa, uning jamoasida ko'tarinki kayfiyat, ta'lim-tarbiyani rivojlantirishga doir ilg'or g'oyalar hukmronlik kiladi va ishda samaradorlik yuqori bo'ladi.

Shular bilan birgalikda, turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlashda ulardagi quyidagi kamchiliklar va yetishmovchiliklar mavjud:

- amaliy ko'nikmalarning yetishmasligi;
- muammoni tahlil qilish va yechish amaliyotining kamligi;
- guruh va o'quvchilar bilan ishlashda pedagogik va psixologik yondashuvning sustligi;
- mashgulotlar va izlanishlarda innovatsiyalarni qo'llash tajribasining yetishmasligi;
- muomala madaniyatining pastligi;
- tashkilotchilik va guruhlarni boshqaruvchilik ko'nikmasining kamligi;
- ish yuritish va hujjatlarni rasmiylashtirish tartibini yaxshi tushunmaslik;
- o'z sohasining huquqiy-me'yoriy asoslarini, tartib-qoidalarini to'la bilmaslik;

- tadqiqot olib borish va innovatsiyalarni qo'llash malakasining kamligi;
- kasb sohasida so'z boyligining kamligi va xorijiy tillarni yaxshi bilmaslik;
- kasbiy mahoratini oshirish va o'z ustida ishlashga bo'lgan intilishning sustligi va kareraga intilmaslik;
- tadbirkorlik va iqtisodiy bilimlarning kamligi;
- axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish tajribasining yetishmasligi;
- o'z mutaxassisligini mukammal darajada bilmaslik;
- kasb etikasining yaxshi rivojlanmaganligi;
- o'quvchilarni baholashda mezonlardan to'g'ri foydalana olmaslik.

Umuman, turizm ko'rsatish sohasida raqobatbardosh kadrlarni rivojlantirishda quyidagi muammolarni bartaraf etish maqsadlidir:

- turizm sohasi ta'lim yo'nalish bakalavr hamda magistr bosqichida tahsil olayotgan talabalar bilimni yanada kengaytirish;
- o'z fikr-mulohazalarini erkin tarzda bayon etuvchi talabalarni xulosasini erkin aniq tarzda yo'naltirish;
- talabalarda ilg'or texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirib borish;
- muomala layoqatini oshirib borish.

Turizm sohasida alohida e'tibor talab qiladigan jihatlarga ham e'tiborni kuchaytirish kerak. Bu borada talabalarni yetuk mutaxassisli kadr bo'lishi uchun avvalo, ular ongida madaniyat, ma'naviyat kabi tushunchalarni singdirish va shu bilan bir qatorda ular ruhiyatida milliy qadriyat, an'analarini singdirishdan iborat.

Talabalarda zamonaviy, yangicha yondashuvlar asosidagi bilim darajalarini oshirib borishda ilg'or texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, butun hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantiruvchi va harakatlantiruvchi kuch, xizmatlar sohasida eng faol va istiqbolli turizm sanoatining rivojlanishi uchun zarur malakali kadrlar bugungi kundagi eng muhim

masalalardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasi va uning mintaqalarida turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida har bir hududning turistik salohiyati sezilarli darajada oshadi. Shu bilan birga, biz yuqorida keltirgan dolzarb masalarning o‘z echimini topishi istiqbolda viloyat turistik salohiyati va binobarin xorijiy turistlar oqimining kengayishiga zamin yaratadi.

2.2. Turizm sohasida kadrlar tayyorlashning bugungi ahvoli

Mamlakatimizda sayohatlarni mazmunli o‘tkazish uchun barcha sharoit va omillar mavjud, ya’ni mehmonxona va restoranlar faoliyati zamonaviy asosda tashkil etilgan, transport tizimi yaxshi rivojlangan, eng muhimi, yurtimizda tinchlik-osoyishtalik qaror topgan.

Shu boisdan ham, mamlakatimizga kelayotgan turistlar safi yildan-yilga kengayib bormoqda. Ularga sifatli xizmat ko‘rsatish, yurtimiz haqidagi tasavvurlarini boyitish soha xodimlaridan yuksak bilim va malaka talab etadi.

Respublikamiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 1999 yil 30 iyunda qabul qilingan “O‘zbekistonda turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 10 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurishni o‘zining asosiy maqsadi qilib belgilab oldi. Bu ishda turizm sohasining o‘zi yetakchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. Avvalo, turizm sohasi nafaqat o‘tmishni o‘rganish, o‘zga xalqlar va elatlar bilan tanishish, ularning madaniy yodgorliklaridan bahramand bo‘lish, shuningdek, u katta biznes hisoblanadi. Hamda kadrlarni tayyorlash jarayoni ham bevosita ushbu faoliyat doirasida amalga oshiriladi.

Mazkur faoliyatni yo‘lga qo‘yish esa mutaxassislarga bog‘liq. Ushbu mutaxassislar kadrlar hisoblanadi. Buning uchun malakali kadrlarni

tayyorlash hozirgi kundagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada respublikamizdagi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti, Singapur menejment univrsiteti, Buxoro, Urganch va Nukus Davlat universitetlari va turizm sohasidagi kasb-hunar kollejlari bu ishga o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar.

Shularning natijasida turizm sohasida kadrlarni tayyorlovchi oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarining soni ham kundan kunga ko‘payib bormoqda.

2.2.1-jadval

O‘zbekistonda turizm sohasi bo‘yicha kadrlar tayyorlashdagi oliy o‘quv yurtlarining o‘rni²³

№	Ta’lim muassasalarining nomi	Tashkil etilgan yili	Bitiruvchilar soni
1.	Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Servis va turizm” va “Iqtisodiyot va menejment” fakultetlari	2005	371
2.	Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti “Xalqaro turizm” fakulteti	1999	886
3.	Buxoro Davlat universiteti	2008	22
4.	Urganch Davlat universiteti	2008	24

Mustaqillik davriga kelib, O‘zbekistonda turizmga, shuningdek soha kadrlarini tayyorlashga katta ahamiyat berilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekistonda turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (1999 yil 2 iyul) Qarori asosida Toshkent Davlat iqtisodiyot universitetida xalqaro turizm fakulteti, Toshkent, Samarqand va Buxoroda turizm kollejlari ochildi.

Vazirlar Mahkamasining “Samarqand iqtisodiyot va servis institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori (2004 y. 26 mart) bilan faoliyatini qayta qurgan oliy o‘quv yurtida ham turizm fakulteti ish boshladi. Shuningdek, mamlakatdagi boshqa ba’zi oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida ham turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlanadi.

²³ Manba: Tuxliyev I.S., Xayitboyev R., Tursunova G.R. Turizm asoslari. O‘quv-uslubiy majmua. - Samarqand, SamISI, 2013. - 358 b.

Jumladan, bugungi kunda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, poytaxtimizdagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Buxoro Davlat universiteti, Urganch Davlat universitetlarida Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlaridagi turizm kollejlari sayyohlik marketingi va menejmenti, xizmat ko'rsatish, xalqaro turizm, mehmonxona xo'jaligi va restoran ishi yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Shundan kelib chiqib, respublikamizning hududlari bo'yicha turizmga ixtisoslashgan kasb-qunar kollejlari tomonidan turizm sohasi uchun mutaxassislar tayyorlanmoqda (2.2.2-jadval).

2.2.2-jadval

Hududlar bo'yicha kasb-hunar kollejlari tomonidan turizm sohasi uchun mutaxassislarni tayyorlash (2015/2016 o'quv yili boshiga, kishi)²⁴

Ko'rsatkichlar	Qabul qilinganlar soni	O'quvchilar soni	Bitiruvchilar soni
O'zbekiston Respublikasi	7333	20801	5748
Qoraqalpog'iston Respublikasi	145	408	166
viloyatlar:			
Andijon	318	739	220
Buxoro	520	1393	329
Jizzax	241	756	164
Qashqadaryo	77	625	279
Navoiy	52	224	299
Namangan	327	938	247
Samarqand	564	1597	459
Surxondaryo	245	641	166
Sirdaryo	57	159	59
Toshkent	543	1479	282
Farg'ona	353	1030	345
Xorazm	957	2659	445
Toshkent sh.	2934	8153	2288

Jadvalga asosan, respublikamizda 2015-2016 o'quv yili boshiga nisbatan 7333 nafar kishi qabul qilingan, 20801 nafar o'quvchi va 5748 nafar bitiruvchilarni

²⁴ Manba: O'zbekistonda turizm. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'plami. – T., 2015.

tashkil etgan. Bunday ko'rsatkichga ega bo'lishning asosiy sabablari sifatida Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining xalqaro turizm fakultetida mehmonxona xo'jaligi, xizmatlar ko'rsatish, turizm marketing va menejment ixtisosliklari bo'yicha malakali kadrlar tayyorlanmoqda.

Bu borada AQSH, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Fransiya, Gretsiya, Italiya, Malayziya kabi turizm rivojlangan mamlakatlarning oliy o'quv yurtlari bilan yaqin hamkorlik qilinmoqda. Mazkur fakultet Jahon sayyohlik tashkilotiga a'zo ham hisoblanadi.

Ushbu universitetda "Ochiq osmon ostidagi muzey" nomli tarixiy-madaniy majmua tashkil etilgan. Unda noyob me'moriy obidalarimiz, xushmanzara tabiatimiz manzaralari aks etgan. Bu yerda mamlakatimizning turizm salohiyatini namoyish etuvchi info-turlar, mehmonxonalar va sayyohlik kompaniyalari bilan hamkorlikda "Eng yaxshi stol servisi" mavzuida mahorat saboqlari muntazam o'tkaziladi.

Fakultetda sohaga oid turli ilmiy-amaliy anjumanlar, video-konferensiyalar va o'quv-seminarlarni tashkil etish an'anaga aylangan. Talabalar turli mamlakatlarda o'tadigan xalqaro ko'rgazmalarda faol ishtirok etib kelmoqdalar. Bunda "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi (hozirgi O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi) bilan hamkorlik muhim omil bo'lmoqda.

Har o'quv yilida ushbu fakultetni yuz nafarga yaqin talaba tamomlaydi. Sohadagi talab va takliflar asosida ularni ishga joylashtirish yo'lga qo'yilgan. Xususan, "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi (hozirgi O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi), "O'zintur", "Mard Ulug'bek", "Yasminatur", "Real drems" va "Buyuk ipak yo'li" kabi sayyohlik firmalari, "Internatsional Hotel Tashkent", "Dedeman", "Lotte Citi Hotel Tashkent Palace", "Le Grande Plaza" va "Malika Tashkent" kabi mehmonxonalar bilan hamkorlik shartnomalari tuzilgan.

Hamkorlik shartnomalarini tuzishdan asosiy maqsad respublika hududlari bo'ylab oliy ta'lim muassasalari tomonidan turizm sohasi uchun mutaxassislarni tayyorlashning talab darajasida tashkil qilinganligidir. Shuningdek, respublika hududlari bo'yicha oliy ta'lim muassasalari tomonidan turizm sohasi uchun mutaxassislarni tayyorlash ishlari ham amalga oshirilmoqda (2.2.3-jadval).

2.2.3-jadval

Hududlar bo'yicha oliy ta'lim muassasalari tomonidan turizm sohasi uchun mutaxassislarni tayyorlash (2015/2016 o'quv yili boshiga, kishi)²⁵

Ko'rsatkichlar	2013/2014 yy.	2014/2015 yy.	2015/2016 yy.
O'zbekiston Respublikasi	444	1688	346
viloyatlar:			
Buxoro	61	202	25
Qashqadaryo	20	41	-
Samarqand	227	870	194
Xorazm	77	317	67
Toshkent sh.	59	258	60

Jadvalga asosan, 2015-2016 o'quv yilining boshiga respublika bo'yicha oliy ta'lim muassasalari tomonidan turizm sohasi uchun 346 nafar mutaxassislar tayyorlangan. Ular bitiruvchilar sifatida mutaxassislik mashg'ulotlarini qo'mitaning o'quv-maslahat markazi, mehmonxonalar va sayyohlik firma va kompaniyalarida o'tamoqdalar. Universitetda tashkil etilayotgan bo'sh ish o'rinlari yarmarkalari bitiruvchilarga turizm sohasidagi firma va kompaniyalar bilan tanishish, ish taklif etuvchilarga esa yuqori malakali kadrlarni tanlash imkonini bermoqda.

Shuningdek, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti sayyohlik sohasida dunyoning nufuzli va zamonaviy ta'lim muassasalaridan biri hisoblanadi. Institutning Toshkent shahridagi filialida ham xalqaro turizm va mehmonxona boshqaruvi bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlanmoqda. Mazkur yo'nalishda darslar Avstraliyaning Southern Cross universiteti taqdim etgan dastur bo'yicha olib boriladi. Joriy yildan boshlab Buyuk Britaniyaning Bangor universiteti dasturi

asosida saboq berish ham yoʻlga qoʻyiladi. Bu yerda tashkil etilgan mehmonxona markazi sayyohlik sohasida tahsil olayotgan talabalarning amaliy mashgʻulotlarni “jonli” oʻtkazishida muhim omil boʻlmoqda.

Markazda talabalar mehmonlarni kutib olish, ularni roʻyxatdan oʻtkazish, muomala qilish qoidalarini chuqur oʻzlashtiradi. Mehmonxona markazida restoran va kafe-bar ham mavjud. U yerda talabalar stolga taom tortish, mehmonlar bilan muomala qilish va yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etishni mashq qiladi. Markazning besh yulduzli mehmonxona koʻrinishida tashkil etilgan uchinchi qismida yotoqxonadan tortib yuvinish xonasigacha mavjud. Institutni bitirgan talabalar kelgusida kadra sifatida mehmonxona ishi va koʻngilochar sanoat sohasi menejerlari, kurortlar boshqaruvchilari boʻlib yetishadi, shaxsiy mehmonxona biznesini tashkil etishi mumkin.

Aytish joizki, mehmonxona va restoran biznesi sayyohlikning eng koʻp daromad keltiradigan tarmoqlaridir. Uning rivojida xizmat koʻrsatuvchi kasb egalari, xususan, ofitsiantlarning alohida oʻrni mavjud. Ofitsiantlar har qanday dam olish va ovqatlanish muassasasining yuzi hisoblanadi. Ularning sifatli xizmati, samimiy munosabati mijozlarning maroqli hordiq chiqarishi, muayyan muassasa, qolaversa, mamlakat obroʻining yuksalishiga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz restoranlarida xizmat koʻrsatish jahon andozalari darajasida yoʻlga qoʻyilgan. Soha xodimlarining malakasini oshirib borish maqsadida xalqaro tajribani oʻrganishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Oʻtgan yillarda Qoʻmitaning respublika ilmiy-oʻquv konsalting markazi va Germaniyaning “DVV International” xalqaro tashkilotining Oʻzbekistondagi vakolatxonasi hamkorligida “Restoranda xizmat koʻrsatish: ofitsiant” loyihasi amalga oshirildi.

Loyiha doirasida italiyalik xalqaro ekspert Ronaldo Rozani Toshkent, Samarqand va Xiva shaharlarida boʻlib, mehmonxona restoranlari xodimlari va sayyohlik kasb-hunar kollejlari oʻquvchilari uchun seminar-treninglar oʻtkazdi. Har bir sayyoh boshqa mamlakatga borganida gidlar yordamiga ehtiyoj sezadi.

²⁵ Manba: Oʻzbekistonda turizm. Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi toʻplami. – T., 2015. Manba: www.stat.uz

So‘nggi yillarda Buxoro viloyatida xalqaro va mahalliy turizm oqimining barqaror ravishda oshib borayotganligi kuzatilmoqda. Ushbu ko‘rsatkichlarga sanatoriya-kurort tashkilotlari hamda dam olishni tashkil etuvchi boshqa korxonalaridagi, shuningdek, turizm sektori tomonidan bilvosita yaratilgan ish o‘rinlari ham kiritilsa, turizmning viloyatda ish bilan bandlik ko‘rsatkichlariga qo‘shayotgan salmoqli hissassi namoyon bo‘ladi. Buxoro Davlat universiteti oldida turgan asosiy vazifalardan biri ham mana shu ish o‘rinlari uchun malakali kadrlarni o‘z vaqtida yetkazib berishdan iborat.

Buxoro viloyatida turizm sohasi uchun kadrlar Buxoro Davlat universiteti va Buxoro Turizm kollejida tayyorlanadi. Buxoro davlat universitetida turizmga ixtisoslashgan turizm va mehmonxona xo‘jaligi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi mavjud bo‘lib, mazkur ta‘lim yo‘nalishini 2012 yilda ilk bakalavrlar tugatdilar.

2010-2011 o‘quv yilidan “Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish”, 2013-2014 o‘quv yilidan boshlab “Turizm” va “Xizmatlar sohasi” bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari hamda “Turoperatorlik faoliyatini tashkil etish” magistratura mutaxassisliklariga talabalar qabuli amalga oshirildi. Ayni paytga kelib, 45 nafar talaba ushbu yo‘nalishlarni tugatgan, shuningdek, 149 nafar talaba ta‘lim olmoqda. 2017 yilga borib, universitet tomonidan sohaga yetkazib beriladigan kadrlar soni 200 nafardan oshirilishi rejalashtirilmoqda. Ushbu ko‘rsatkichlarga Buxoro turizm kollejini har yili bitirib chiqayotgan 150 nafardan ortiq mutaxassisni ham qo‘shganda, sohani malakali kadrlar bilan ta‘minlash borasida ijobiy natijalarga erishilayotgani kuzatiladi. Buxoro Davlat universitetida turizm sohasi ta‘limi “Iqtisodiy ta‘lim va turizm” kafedrasida huzurida ochildi.

Ayni paytda turizm yo‘nalishida dars beruvchi 10 nafar professor-o‘qituvchi, shu jumladan, 1 nafar fan doktori, 5 nafar fan nomzodi talaba yoshlarga sohaning nozik jihatlarini dunyo tajribalarini qo‘llagan holda mukammal tarzda o‘rgatmoqdalar. O‘qituvchilar sakkiz nafari Yevropa va Osiyoning universitetlarida malaka oshirish va ilmiy tadqiqotlar olib borish muddatlarini o‘tab qaytishdi.

Buxoro viloyatida zamonaviy turizm industriyasi rivojlanishida

internet tizimining o'zni beqiyos. Talabalar va professor-o'qituvchilar viloyat turizm korxonlarida internet texnologiyalaridan foydalanish borasida maslahat-konsalting xizmatlari ko'rsatib kelishmoqda. Viloyatning turizm salohiyatini yanada kengroq namoyish qilish maqsadida talabalar tomonidan ijtimoiy tarmoqlarda "Otel Buxara" va "Bukhara – Open your fairland" kabi nomlar ostida sahifalar yuritilmoqda.

Ayni paytda bir guruh talaba va professor-o'qituvchilar "O'zbekturizm" MK hududiy boshqarmasi hamkorligida Buxoro turizm industriyasining o'ziga xos tomonlarini namoyish qilish, soha kadrlari malakasini oshirish, ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda bronlashtirish va ma'lumot berish, biznes g'oyalarini amalga oshirishda yordam berish kabi xizmatlarni o'zida mujassam etuvchi yangi veb-sayt yaratish borasida ishlar olib borishmoqda. Buxoro viloyatida "2013-2016 yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish kompleks chora-tadbirlar dasturi" doirasida Buxoro turizm kolleji bilan Turkiya va Avstriyaning yetakchi turizm kollejlari o'rtasida hamkorlik o'rnatilishida amaliy yordam ko'rsatildi.

Jumladan, universitetda Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan "2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi Qaroridan kelib chiqib, unda qayd etilgan vazifalarni bajarishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, an'anaviy hunarmandchilik bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar, folklor ijrochiligi, qadimiy qo'lyozmalar borasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

"Asrlar sadosi" hamda "Ipak va ziravorlar festivali"da hunarmandchilik namunalari bilan ishtirok etib kelinmoqda. Iqtidorli talabalardan iborat guruh tomonidan Buxoro viloyatida mavjud bo'lgan moddiy va nomoddiy meros namunalari to'g'risidagi ma'lumotlar nashrga tayyorlanmoqda.

"Iqtisodiy ta'lim va turizm" kafedrasida xalqaro aloqalar namunali tarzda tashkil etilgan bo'lib, Santyago de Kompostela universiteti, Ispaniyaning Valensiya politexnika universiteti, Belgiyaning Bryussel erkin universiteti,

Finlandiyaning Rovaniemi universiteti va Gretsiyaning Saloniki texnologik ta'lim universiteti kabi ko'plab etakchi oliy ta'lim muassasalari bilan ilmiy tadqiqotlar olib borish borasida hamkorlik munosabatlari yo'lga qo'yilgan.

Yevropa Komissiyasining TEMPUS hamda ERASMUS MUNDUS dasturlari doirasida yuqoridagi universitetlarda 2010-2013 yillar mobaynida 15 ga yaqin talaba o'qib qaytishdi, o'ndan ortiq tadqiqotchi, sakkiz nafar professor-o'qituvchi ilmiy izlanishlar olib bordi. Iqtidorli talabalardan olti nafari BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi tomonidan tashkil etilgan tanlovlarda muntazam ravishda ishtirok etib, g'oliblar safidan o'rin olib kelishmoqda. Ikki nafar talaba turizm yo'nalishida ilmiy izlanishlar natijasi sifatida Navoiy nomidagi davlat stipendiyalari sovrindori bo'lishdi va bir nafar professor-o'qituvchi "O'zbekiston belgisi" davlat nishoniga sazovor bo'ldi.

Biroq, mamlakatimizda turizm va servis sohasining tobora taraqqiy topib borayotganligi "Iqtisodiy ta'lim va turizm" kafedrasini oldiga bir qator dolzarb vazifalarni qo'yimoqda. Bunda ilm-fanning ishlab chiqarish sohasi bilan o'zaro manfaatli va innovatsiyalarga tayanadigan samarali aloqalarini yo'lga qo'yishning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilab olingan:

- hududdagi turizm sohasi vakillari, oliy ta'lim muassasalari, litsey va kollej professor-o'qituvchilari hamda talabalar, ilmiy tadqiqotchilar, mutaxassislar o'z ishlanmalari, ilmiy maqolalari va takliflari bilan ishtirok eta oladigan interaktiv loyihalarni amalga oshirish;

- turizm va servis sohasi ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda malakali, yuqori bilimli va ko'nikmalarga ega mutaxassislar tayyorlash sifatini yanada yaxshilash;

- moddiy va nomoddiy merosni asrab-avaylash, turizm potensialidan oqilona foydalanish, turizm rivojining iqtisodiyoti, jamiyatning ijtimoiy va madaniy hayoti hamda atrof-muhitga ta'sirini baholashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borish;

- turizm ta'limi sohasida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish;

- mahalliy vakolatli organlarga turizm sohasida qarorlar qabul qilishda ekspertlik yordamini ko'rsatish, mahalliy turizm korxonlari uchun ilmiy tadqiqot

ba'zasi sifatida konsalting xizmatlari hamda mavjud kadrlar malakasini oshirish imkoniyatlarini taklif qilish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan vazifalarga mos ravishda talabalarga to'rtta fan ingliz tilida o'tila boshlandi, sohaga oid xorijiy adabiyotlar bazasi yaratildi.


Talabalarning amaliyot ishlarini tashkil etishda Qo'mitaning hududiy boshqarmasi bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatilgan. Boshqarma tomonidan talabalar viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan mehmonxonalar va boshqa turistik korxonalarga amaliyot o'tashlari uchun yuborilmoqda. Ya'ni, jahon sayyohlik sohasidagi jadal rivojlanish jarayonlari Buxoro viloyatida ham kuzatilmoqda. Shu bois, universitet o'qituvchi va murabbiylar oldida mazkur sohaga etuk, bilimdon va malakali kadrlar etkazib berish kabi yuksak vazifa turibdi. Universitet jamoasi ana shu ezgu maqsadni chuqur his etib mehnat qilmoqda.

Umuman olganda, turizm sohasida kadrlar tayyorlashning bugungi ahvoli Buxoro Davlat universitetidan tashqari respublikamizning boshqa shahar universitetlarida ham ana shunday tarzda tayyorlanmoqda.

2.3. Kadrlar tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining roli va ishtiroki

Turizm sohasini rivojlantirish bugungi kunda respublikamizdagi asosiy ustuvor yo'nalish bo'lib hisoblanadi. Chunki, O'zbekiston Respublikasi Butunjahon turizm tashkiloti tomonidan belgilangan me'yoriy qonunlar asosida o'zining turizm menejmentini tashkil qilmoqda.

Hamda mamlakatimizda turistik faoliyatni davlat tomonidan boshqarishda turli tamoyillarga amal qilinadi. Xususan, davlat turistik faoliyatni O'zbekiston iqtisodiyotining etakchi tarmoqlaridan biri sifatida e'tirof etib, turistik faoliyatni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlaydi. Bu esa turizm boshqaruvi orqali ta'minlanadi (2.3.1-rasm).



2.3.1-rasm. O'zbekistonda turizm boshqaruvi tuzilishi²⁶

Rasmga asosan, O'zbekistonda turizm boshqaruvini ta'minlashda turizmga ixtisoslashgan organlar, korxona va tashkilotlar qatnashadi. Ana shunday davlatning eng etakchi organlaridan biri bu O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish Davlat qo'mitasidir.

Bugungi kunda qo'mitaning rolini yanada mustahkamlash borasida hamda turizm sohasidagi ustuvor yo'nalishni amalga oshirish bo'yicha 2016 yil 2 dekabrda qabul qilingan PF-4861 sonli "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi va bu farmonning bajarilishi yuzasidan shu kunda PQ-2666-sonli "O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini

²⁶ Manba: www.uzbektourism.uz

tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi.²⁷

Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida qabul qilingan ushbu Prezident qarorida quyidagi chora-tadbirlar va vazifalarni izchil amalga oshirish belgilab berildi.

Xususan, ushbu qo‘mita faoliyatining asosiy vazifalari va yo‘nalishlari qilib, quyidagilar yo‘nalishlar belgilandi:

- turizm salohiyatini tubdan oshirish, unga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berish;

- sohani rivojlantirishning yaxlit konsepsiyasini shakllantirish va amalga oshirishni ta‘minlash;

- turizm xizmatlarining tashqi va ichki bozorlarida marketing tadqiqotlarini olib borish;

- tarixiy-madaniy merosni keng targ‘ib qilish, faol reklama-axborot siyosatini amalga oshirish;

- ichki, tashqi va chiqish turizmini kompleks rivojlantirishning milliy va hududiy dasturlari ishlab chiqilishini muvofiqlashtirish va uning monitoringi;

- turizm infratuzilmasini rivojlantirishga xorijiy investitsiyalar va boshqa mablag‘larni jalb etish;

- soha faoliyati rivojlanishini muvofiqlashtirish, mintaqalarda yangi turizm yo‘nalishlarining tashkil etilishini ta‘minlash;

- pasportlashtirish va yagona milliy reestrlarni shakllantirish;

- turizm xizmatlari ko‘rsatish sifati va xavfsizligi standartlari ishlab chiqilishini muvofiqlashtirish;

- ular bo‘yicha inspeksiya nazoratini amalga oshirish, sohani tartibga solishni maqbullashtirish va raqobatni rivojlantirish;

- to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish, sohada tadbirkorlik faolligini oshirishga ko‘maklashish;

²⁷ www.lex.uz

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, turizm faoliyatini BMT Butunjahon turizm tashkiloti va boshqa xalqaro, milliy tashkilotlar, kompaniyalar bilan hamkorligini kengaytirish;

- xalqaro standart va normalarni amaliyotga joriy etish;

- soha xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishni yuqori darajada tashkil etish hamda tarmoq turizm fanlarini rivojlantirishga ko'maklashish.

Qo'mita barcha majburiyat va shartnomalar, shu jumladan, xalqaro majburiyatlardan va shartnomalar bo'yicha oldingi "O'zbekturizm" MKning huquqiy vorisi bo'lishi keltirilgan. Biroq, mehnat shartnomalari bular qatoriga kirmaydi.

Shuningdek, qo'mita tuzilmasida quyidagi subyektlarning tashkil etilishi keltirib o'tilgan:²⁸

- mustaqil bo'limlar sifatida tugatilgan "O'zbekturizm" MK huzuridagi "Buyuk ipak yo'li reklama agentligi" davlat unitar korxonasi negizida "Milliy turizm mahsulotlarini targ'ibot qilish markazi" davlat unitar korxonasi;

- "Turizm xizmatlarini sertifikatlash markazi" unitar korxonasi negizida "Turizm xizmatlarini sertifikatlash markazi" davlat unitar korxonasi;

- "Dispetcherlashtirish va sayyohlarga xizmat ko'rsatish markaziy boshqarmasi" negizida "Dispetcherlashtirish va sayyohlarga xizmat ko'rsatish markazi" davlat unitar korxonasi.

Shu bilan birga, qo'mitaning tashkiliy tuzilmasi, markaziy apparatining tuzilmasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand, Buxoro, Xorazm va Farg'ona viloyatlari hududiy boshqarmalarining namunaviy tuzilmasi, qo'mita to'g'risidagi nizom kabilarning qarordagi ilovalarga muvofiq tasdiqlanishi bayon etilgan.

Hamda quyidagi ish va vazifalarni amalga oshirish ko'rsatib o'tilgan:

- qo'mita hududiy boshqarmalarining rahbarlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi va viloyatlar hokimlarining taqdimnomasiga binoan qo'mita raisi tomonidan lavozimga tayinlanishi;

²⁸ www.lex.uz

- davlat budjeti va qo'mita huzuridagi budjetdan tashqari Turizm sohasini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari va boshqa manbalarning qo'mita faoliyatini moliyalashtirish manbalari bo'lishi;

- qo'mita huzuridagi budjetdan tashqari Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasining yangidan tashkil etilishi;

- qo'mita vakolatlariga muvofiq, da'vo va arizalar bo'yicha davlat boji to'lashdan ozod qilinishi, qo'mitaning joylashgan manzili;

- uni zarur aloqa vositalari bilan ta'minlashga Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligining ko'maklashishi;

- hamda qabul qilingan qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida takliflar kiritish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizmni 2005 yilgacha rivojlantirish dasturi to'g'risidagi" 1999 yil 15 aprelidagi, "Turizmni rivojlantirish uchun malakali xodimlarni tayyorlash haqidagi" farmonlariga binoan 2000 yil 14 iyunda "O'zbekturizm" MK qoshida Respublika ilmiy-o'quv konsalting markazi tashkil etildi. Markaz tashkilotchisi hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi hisoblanadi.

Markazning asosiy vazifasi turizm sohasi bo'yicha malakali xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakalarini oshirish, turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha ilmiy ishlarni qo'llab-quvvatlashdan iborat.

2004 yil 28 aprelida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekturizm" MK tomonidan markazning asosiy maqsadlari belgilandi. Ular qatoriga quyidagi vazifalar kiritilgan:

- O'zbekiston Respublikasida turizm sanoati va turizm chora-tadbirlarini o'tkazishga va sohani rivojlantirishga ko'maklashish;

- turizm sohasi uchun malakali xodimlarni tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va malakalarini oshirish;

- yurtimizga tashrif buyurgan sayyohlarni respublikamizning tarixiy yodgorliklari, madaniyati, jamoatchilik va siyosiy hayoti to'g'risida ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlash.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi respublika ilmiy-o'quv konsalting markazining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:²⁹

- "O'zbekturizm" Milliy Kompaniyasining tuzilmaviy bo'linmalarida xizmat ko'rsatuvchi xodimlariga konsultatsiya berish va ularni attestatsiyadan o'tkazishni tashkil qilish;

- turizm sohasida xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va gid-ekskursovodlar, turizm korxonalari rahbarlari uchun har yil seminar-treninglar o'tkazish;

- belgilangan tartibda o'z turistik firmalarini ochmoqchi bo'lgan korxonalarga sohaviy konsultatsiya berish;

- turizm bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tashkilotlarni zamonaviy o'quv uslublari va darsliklari bilan o'qitishni ta'minlovchi materiallarni ishlab chiqish;

- milliy an'analar va urf odatlar, yangi turistik obyektlar bo'yicha tavsiyanomalar va ishlanmalar tashkillashtirish;

- gid-ekskursovodlarning portfeli uchun broshyuralar, bukletlar, zaruriy metodik adabiyotlar va ekskursion matnlar ishlab chiqish;

- yirik turistik kompaniyalar, mehmonxonalar, restoranlar, xorijiy hamkorlar va investorlar bilan birga amaliy seminarlar tashkil qilish;

- respublika tarixiy-madaniy salohiyatidan maksimal foydalangan holda mashrutlar va ekskursiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

- respublika ekskursiovdolari va gid-tarjimonlari bankini shakllantirish va uni muntazam yangilab turish;

- sayyohlarga xizmat ko'rsatish darajasini oshirish bo'yicha dasturlar va ishlanmalarni yaratish va amalga tadbiq etish;

- xalqaro turizm sohasida xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan fikr almashish va ma'lumot olish;

- kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish.

Markaz quyidagi yo'nalishlar bo'yicha mutaxassislarni tayyorlaydi:

²⁹ www.uzbekturizm.uz

- gid (ekskursovod);
- turoperator;
- mehmonxona administratori.

Malaka oshirish va qayta tayyorlash qo‘yidagi toifalarda amalga oshirildi:

- ilgarigi “O‘zbekturizm” MK tizimidagi barcha bo‘linmalar rahbarlari;
- turizm sohasida, mehmonxona, restoranda faoliyat ko‘rsatuvchi rahbarlar;
- gidlar (ekskursovlar);
- turizm sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi bosh hisobchilar, iqtisodchilar;
- avtotransport muassasalari rahbarlari va xodimlari;
- temir yo‘l transporti bo‘yicha faoliyat yurituvchi ishchi xodimlari.

Shularni hisobga olib, qo‘mita soha xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishni yuqori darajada tashkil etish hamda tarmoq turizm fanlarini rivojlantirishga ko‘maklashish maqsadida ilgarigi ilmiy-o‘quv konsalting markazi turizm sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish markaziga aylantirildi.

Chunki, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash mutaxassislarining kasb bilimlari va ko‘nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishga qaratilgan. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta’lim muassasalaridagi o‘qish natijalariga ko‘ra davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvohnoma yoki sertifikat topshiriladi.

Xususan, hozirgi kunga kelib, oldingi “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasining respublika ilmiy-o‘quv konsalting markazida etuk mutaxassislar tayyorlandi. Chunki, sayohat dasturining qiziqarli o‘tishi, mehmonlarda mamlakat tarixi, ma’naviy-madaniy boyligi, betakror me’moriy obidalari, xalqining urf-odatlar va qadriyatlar haqida tasavvur shakllanishi ularning o‘z kasbini nechog‘li o‘zlashtirgani bilan bevosita bog‘liq.

Markaz tashabbusi bilan sayyohlik korxonalari rahbarlari va turizm sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi gidlar uchun treninglar o‘tkazildi. O‘z sayyohlik firmasini ochayotgan tadbirkorlarga maslahat xizmati ko‘rsatiladi. Markaz tomonidan sayyohlik tashkilotlari xodimlarini turistik biznesni tashkil etish va

boshqarishning zamonaviy shakl va uslublariga o'rgatish bo'yicha yangi uslubiy tavsiya va qo'llanmalar ishlab chiqilda.

Ayniqsa, gidlarning malakasini oshirish maqsadida yirik sayyohlik kompaniyalari, mehmonxonalar, restoranlar, xorijiy sheriklar va investorlar bilan hamkorlikda amaliy seminarlar tashkil etildi.

Darhaqiqat, xodimlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlashni ilgari "O'zbekturizm" milliy kompaniyasiga qarashli respublika ilmiy-o'quv konsalting markazi amalga oshirdi. Jumladan, markaz tomonidan 2005 yilda 51 nafar gid, 201 nafar gid-tarjimon va 90 nafar turistik operator tayyorlandi. 140 nafar mutaxassisga malaka oshirish o'quv mashg'ulotlari va 190 nafar xodimga seminar-trening uyushtirildi. Bu borada olib borilayotgan chora-tadbirlar va ishlarning barchasi O'zbekistonda turizmning keng avj olishi uchun yordam berdi.

Shular bilan bir qatorda, oldingi yillarda ushbu markazda "O'zbekturizm" MK tizimidagi turistik firmalar va mehmonxonalar uchun 400 ta seminar-treninglar o'tkazildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi ichki turizmini tashkillashtirish bo'yicha 2 ta ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi, turoperatorlik va mehmonxona faoliyati bo'yicha uslubiy qo'llanma ishlab chiqarildi. Buyuk Ipak yo'li shaharlarining qadimiy yodgorliklari bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqildi.

Ayniqsa, gid-tarjimonlar va turoperatorlar kurslarida ta'lim olayotganlarni o'quv materiallari va elektron qo'llanmalar bilan ta'minlash eng ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

Professional bilimlar, zamonaviy standartlari bilim va ko'nikmalariga ega bo'lgan mehnat bozori talablariga muvofiq keluvchi mutaxassislarni kompleks tayyorlashga qaratilgan o'quv rejalari va dasturlar ham ishlab chiqilgan.

Dasturlarda tinglovchilar uchun nazariy bilimlar bilan birga amaliy mashg'ulotlar ham olib boriladi. Markaz ta'limining yillik ko'lami 6 o'quv soatida 36 soatgacha olib boriladi. Ta'lim seminarlar, leksiylar va treninglar ko'rinishida bo'ladi. Hamda interfaol uslublardan keng foydalanib, vaziyatni modellash, o'yinlari, muhokamalar uslubi targ'ib etiladi.

Markazda malakali o'qituvchilar faoliyat ko'rsatib, ularda ko'pchiligi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining a'zolari bo'lib, ilmiy daraja va salohiyatga ega. Markazda ta'lim berish uchun boshqa vazirlik va idoralardan turizm sohasida yuksak tajribaga ega bo'lgan mutaxassis va xodimlar ham jalb qilinadi.

Markazning barcha o'quv auditoriyalari va xonalari, eshitish kabinetlari texnik asbob-uskunalar bilan ta'minlangan. Markaz yonida tashkil qilingan Axborot markazida turizm sohasiga oid adabiyotlar va o'quv qo'llanmalar mavjud.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, turizmni sohasini jadal rivojlantirish maqsadida Qo'mitaning tashkil qilinganligi kelajakda sohada amalga oshiriladigan chuqur tarkibiy islohot va o'zgarishlarni amalga oshirilishiga yordam beradi. Natijada, turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash tizimining takomillashuviga erishiladi va davlat tomonidan turizm sohasini samarali tartibga solish mexanizmlari takomillashtiriladi.

2-bob bo'yicha xulosa

Turizm sohasida inson resurslari muammosini hal qilishda malakali kadrlarga bo'lgan talab turizm sanoatining o'ziga xos xususiyatini aks ettiradi. Yani, davlat va mintaqaviy ijrochi organlari, sayyohlik biznesi vakillari, ta'lim muassasalarida kadrlar muammosini hal qilish uchun tizimli ravishda harakat olib borish talab etiladi. Endi turizm sohasida kadrlar tayyorlash bilan shug'ullanuvchi ta'lim muassasalarida bitiruvchilarning egallagan bilim va ko'nikmalari turizm sanoatining talab va ehtiyojlariga to'la mos bo'lishi zarur.

Bular o'z navbatida turizm sanoatining ehtiyojlarini qondirish uchun mutaxassislar sonining noaniqligi, turizm sohasidagi Oliy ta'lim muassasalari va kasb-hunar kollejlarida kasb mutaxassisliklarini tayyorlash va ularga qo'yilgan umumiy talablar asosida ta'lim jarayonini olib borish hamda Oliy va o'rta maxsus ta'limning sifat jihatdan jahon ta'lim standartlari darajasida bo'lishi, shunga mos holda o'quv shart-sharoitlarini yuqori darajada tashkil etish muhim omillar bo'lib hisoblanadi.

III-BOB: TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASH JARAYONINING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI

3.1. Xorazm viloyatida turizmga ixtisoslashgan kasb-hunar kollejlari kadrlar tayyorlash jarayoni va asosiy yo‘nalishlari

Xorazm viloyatida turizm sohasidagi kadrlar oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida tayyorlanadi hamda ikkita bosqichga bo‘linadi. Birinchi bosqich o‘rta maxsus ta’lim tizimida amalga oshiriladi. Bu bevosita ixtisoslashgan kasb-hunar kollejlariida amalga oshirilib, ushbu ta’lim muassasalarida kadrlar tayyorlash jarayoni va asosiy yo‘nalishlari amalga oshirilmoqda.

Bilamizki, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi umumiy o‘rta ta’lim negizida o‘qish muddati uch yil bo‘lgan majburiy o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi uzluksiz ta’lim tizimidagi mustaqil turdir. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishi, asosan kasb-hunar kolleji talabgor o‘quvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi. Chunki, kasb-hunar kolleji tegishli davlat ta’lim standartlari doirasida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi beradi hamda o‘quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko‘nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo‘yicha bir yoki bir necha ixtisoslikni egallash imkonini beradi.

Shu bilan birga, turizm sohasidagi kasb-hunar kolleji jihozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibning tanlanganligi va o‘quv jarayonining tashkil etilishi jihatidan yangi turdagi ta’lim muassasalari hisoblanadi. Ular bir yoki bir necha zamonaviy kasb-hunarni egallash hamda tegishli o‘quv fanlaridan chuqur nazariy bilim olish imkonini beradi.

Darhaqiqat, yuqoridagilardan kelib chiqib, turizm sohasidagi o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlardagi chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan:

- kasb-hunar kollejlari faoliyat ko‘rsatishining normativ bazalarini ishlab chiqish va joriy etish;
- soha uchun oliy ta’lim muassasalari, ishlab chiqarish, fan va madaniyat sohasining mutaxassislarini jalb etgan holda yuqori malakali mutaxassislarni

tayyorlash va qayta tayyorlash, shu jumladan, chet ellarda tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etish;

- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari uchun ta'lim va kasb-hunar dasturlari, o'quv-uslubiy majmualar ishlab chiqish;

- kasb-hunar kollejlarida tayyorlanadigan mutaxassislarga nisbatan ixtisos va kasb-hunar, malaka talablarining ro'yxatini ishlab chiqish;

- hududlarning geografik va demografik shart-sharoitlari va tegishli sohadagi mutaxassislarga bo'lgan mahalliy ehtiyojlarni hisobga olgan holda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi ta'lim muassasalarining tashkil etilishi va ular oqilona joylashtirilishini ta'minlash, ularga o'quvchilarni imkon qadar oilasidan ajratmagan holda qamrab olish;

- kasb-hunar kollejlarining moddiy-texnika va axborot bazalarini mustahkamlash.

Bu borada mamlakatni modernizatsiyalash, demokratik bozor islohotlari va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish sharoitida har bir sohasidagi xalqaro andozalarni mamlakatimiz ta'lim tizimida qo'llash bo'yicha ishlarni olib borish hozirgi kunning eng dolzarb masalasi bo'lib hisoblanadi. Shu boisdan ham, hozirgi kunda turizm korxonalarida kasbiy o'sish uchun shart-sharoit yaratish kadrlar bo'limi rahbarlarining asosiy vazifasi bo'lib kelmoqda. Yaxshi kadr ishda uni istiqbolli kasbiy o'sish kutayotgani va moddiy mukofotlar borligini his etsa samarali harakat qilish mumkin.

Ma'lumki, Xorazm viloyatida turizmga ixtisoslashgan kasb-hunar kollejlarida kadrlar tayyorlash jarayonini yanada o'stirish va yuqoridagi tartibda takomillashtirish maqsadida doimiy ravishda mas'ul xodimlar ish olib boradi. Mas'ul xodim turizm sohasida tayyorlanadigan kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi. Chunki, uning asosiy maqsadi – turizm sohasidagi kasb-hunar kollejlari bilan oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini shakllantirish va ularning amalga oshirilishini yanada mustahkamlashdan iborat bo'ladi. Ya'ni, ikki tomonlama o'quv, ilmiy-uslubiy, tashkiliy, ma'naviy-ma'rifiy sohada o'zaro hamkorlik qilishdir.

Avvalo, ushbu shaxs tuzgan va tasdiqlangan rejasi asosida turizm kasb-hunar kollejlari samarali faoliyat yuritadi, kollejlardagi o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatini o'rganib, undagi mavjud muammolar va ularni hal qilish bo'yicha tavsiyalar berib boradi. U kollej ma'muriyati bilan birgalikda o'qituvchining o'quv hujjatlarini o'rganib chiqib, mavjud kamchiliklarni aniqlashi va ularni bartaraf etish yo'nalishlarini ko'rsatib berish bo'yicha qiziqarli uchrashuvlarni ham o'tkazib boradi.

Umuman olganda, turizm sohasidagi kollejlarning rivojlanishi uchun bir qator o'zgarishlar va chora-tadbirlarni ham amalga oshiradi. Xususan, kollej o'qituvchilariga o'qitiladigan fanlar bo'yicha yangi talabdagi tayyorlanadigan o'quv-metodik majmuani tushuntirib beradi, majmuaning tarkibida ta'lim standarti, namunaviy o'quv reja, o'quv dasturi, fanning mavzular rejasi va mazmuni, taqvimiy mavzular rejasi, mashg'ulot mavzulari va ta'lim texnologiyasi, test savollari, taqdimot materiallar, baholash mezonlari va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati berilishini misollar bilan aniq bayon etadi.

Shuningdek, u turizm sohasiga oid tashkil qilingan darslarni tahlil qilishda o'tkazilgan darslarning o'z vaqtida boshlanishi, o'quvchilarning yo'qlama qilinishi, auditoriyalarning umumiy tashkiliy ahvoli va mavzu rejalarini qay saviyada olib borilishini o'rganadi. Hamda, mashg'ulotda axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, o'quv-me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlanish holati va o'quvchilar bilimining saviyasi va darajasini tahlil qilib boradi.

Chunki, dars mashg'ulotlarini texnologiyalar yordamida tashkil qilish darsning sifat va samaradorligini yanada oshiradi. Avvalo, texnologiya so'zi 1872 yilda qo'llanilib boshlangan va yunoncha "texnos" - hunar, mahorat va "logos" esa "ta'limot" yoki "fan" degan ma'noni bildiradi. Pedagogik texnologiya eng asosiy negizi - o'qituvchi-trener va o'quvchilarning belgilangan maqsaddan

kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq bo'ladi.³⁰

Biroq, ushbu jarayon bugungi kunda turizm korxonalarida malaka oshirish va ko'nikmalarni mustahkamlovchi treninglar dasturlarini ishlab chiqish asosida ta'minlanmoqda. Chunki, dasturlar korxonaning har bir bo'limi xodimlari uchun tizimli ishlab chiqilsa, maqsadga ijobiy natijalar beradi. O'z lavozimini ko'tarmoqchi bo'lgan har bir xodim treningga ishtirok etish hohishini bildiradi. Treninglar ishlab chiqarishdan ajralmagan holda xodimlarning ish vaqti tugaganidan so'ng o'tkazilsa, o'z samarasini beradi.

Bu erda treninglar uslubi, shakli, mazmuni doimo takomillashib borilsa, tizimli samaradorlik monitoringi o'tkazilsa, maqsadga muvofiq sanaladi. Ana shunday treninglar turizmga ixtisoslashgan kasb-hunar kollejlari fanlarni ilg'or texnologiyalar asosida o'qitishda quyidagi texnologiyalardan foydalanishni taqozo qiladi. Bular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin: Blits-so'rov, rezyume, muammo, bahs (debat), zinama-zina, SWOT tahlil, FSMU, aqliy hujum kabi interfaol texnologiyalar va h.k.³¹

Xorazm viloyatida turizmga ixtisoslashgan kasb-hunar kollejlari kadrlar tayyorlashga mas'ul bo'lgan xodim kollej o'qituvchilarining matbuot va ommaviy axborot vositalaridan foydalanish hamda ushbu vositalarga ularning maqolalar yozib berishlari yuzasidan suhbatlar o'tkazib boradi. Shu bilan birga, u kollejdagi ilmiy-tadqiqot ishlariga salohiyati kuchli o'qituvchilar bilan samarali ishlashni tashkil etadi. Ularning ro'yxatini shakllantiradi va ilmiy rahbarlarni tayinlashga qaratilgan tadbirlar rejasini ishlab chiqadi.

Hamda, u kollejdagi faol o'qituvchilar bilan davra suhbatini uyushtiradi va turli dolzarb mavzularda tadbirlarni tashkil etib, o'tkazib boradi. U o'rgangan va o'zining bilimini o'qituvchilariga yetkazib, ularning amaliy bilimlarini o'stirishga harakat qiladi.

³⁰ Yo'ldoshev J.G., Usmonova S.A. Pedagogik texnologiyalar asoslari. - T.: 2004. - 4 b.

³¹ Allabergenov A.A., Shaabasova N.H., Keldiyarova S. Turizm biznesini tashkil etish. Dastur. - T., 2012. - 32 b.

Shular bilan birga, Xorazm viloyatida turizmga ixtisoslashgan kasb-hunar kollejlarning kadrlar tayyorlash jarayoni bevosita o'quv va ishlab chiqarish amaliyotiga bog'liq. Chunki, kollejlarda talabalar amaliyoti tashkil qilinib, u o'quv va ishlab chiqarish amaliyoti turlariga bo'linadi. Ushbu amaliyot turlarining kollejlarda tahsil olayotgan o'quvchilar uchun ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati katta rol o'ynaydi. Jumladan, har bir amaliyot o'quv dasturida keltirilgan mavzular asosida talabalarga dars mashg'ulotlari olib boriladi.

Darhaqiqat, o'quv amaliyoti dasturida har bir fanga tegishli bo'lgan barcha mavzular bo'yicha o'quvchilarga Davlat ta'lim standartlari asosida yetkazilishi shart bulgan minimum bilimlar va ko'nikmalar to'la qamrab olingan bo'ladi.

Demak, Xorazm viloyatida turizmga ixtisoslashgan kasb-hunar kollejlarda kadrlar tayyorlash ishlarida ushbu ko'rsatilgan vazifalar bevosita turizmga ixtisoslashgan kasb-hunar kollejlardagi mas'ul xodimlarga tegishli bo'lib, agar mas'ul xodimlar o'z ishini mukammal bajarsa va topshirilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarib borsa, kasb-hunar ta'limi tizimidagi munosabatlarning yanada takomillashuviga erishiladi.

Chunki, hozirgi kunda ta'lim tizimini yanada isloh qilish, har o'quv yilida sifat va samaradorlikka erishish, ta'lim va tarbiya jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni aktiv tadbqiq etish, yosh kadrlarni yuqori darajada ish bilan ta'minlash masalalari ustuvor vazifa qilib qo'yildi.

Darhaqiqat, bugungi kunda Xorazm viloyatida turizmga ixtisoslashgan kasb-hunar kollejlarda kadrlar tayyorlash jarayoni izchil amalga oshirilmoqda. Viloyat miqyosida bunday yo'nalishda uchta kollejlarda faoliyat yuritmoqda. Shulardan biri, 2006 yildan Urganch turizm va tadbirkorlik kasb-hunar kolleji ishga tushirilgan bo'lib, unda 29 nafar umumta'lim fanlari, 33 nafar maxsus fanlar va 13 nafar ishlab chiqarish ta'limi ustalari hamda jami 75 nafar pedagoglar faoliyat olib bormoqda.

Urganch turizm va tadbirkorlik kasb-hunar kollejida har yili quyidagi yo'nalishlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlanmoqda va turizm sohasida kadr bo'lib yetishmoqdalar (3.1.1-jadval):

3.1.1-jadval

Urganch turizm va tadbirkorlik kasb-hunar kollejida 2010-2016 yillarda tayyorlangan mutaxassislar haqida ma'lumot³²

Mutaxassisliklar nomi	Yillar							Jami
	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	
Turistik xizmatlar tashkilotchisi	85	61	58	78	71	77	67	497
Mehmonxona va restoran xizmatlari menejeri	38	31	-	-	22	24	28	143
Turizm, mehmonxona va restoran biznesi	41	57	59	27	-	-	28	212
Oshpaz	25	25	-	-	62	69	126	307
Jami:	189	174	117	105	155	170	249	1159

Jadvalga asosan, Urganch turizm va tadbirkorlik kasb-hunar kollejida 2010 yilda turistik xizmatlar tashkilotchisi mutaxassisligida 85 nafar, mehmonxona va restoran xizmatlari menejeri mutaxassisligida 38 nafar, turizm, mehmonxona va restoran biznesi mutaxassisligida 41 nafar hamda oshpaz mutaxassisligida 25 nafar o'rta maxsus kadrlar tayyorlangan bo'lsa, bu ko'rsatkichlar mos ravishda 2016 yilda 67, 28, 28 va 126 nafarni tashkil etgan hamda o'zgarish kuzatilgan. Shuningdek, ushbu kollejda jami tayyorlangan kadrlar 2010 yilda 189 nafarga teng bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2016 yilda 1159 nafarni tashkil etadi.

³² Xorazm viloyati o'rta maxsus ta'lim kasb-hunar ta'limi boshqarmasining ma'lumotlari asosida magistrant tomonidan tuzildi.

Xiva turizm kasb-hunar kolleji 2014 yilda Xiva hunarmadchilik kasb-hunar kolleji bazasida yangidan tashkil etilgan bo‘lib, bugungi kunda turizm yo‘nalishida quyidagi mutaxassislar tayyorlanmoqda (3.1.2-jadval).

3.1.2-jadval

Xiva turizm va xizmat ko‘rsatish kasb-hunar kollejida 2010-2016 yillarda tayyorlangan mutaxassislar haqida ma’lumot³³

Mutaxassisliklar nomi	2014 yil	2015 yil	2016 yil	Jami
Turistik xizmatlar menejeri	124	62	112	298
Mehmonxona va restoran xizmatlari menejeri	62	32	52	146
Oshpazlik	-	-	58	58
Jami:	186	94	164	502

Jadvalga asosan, Xiva turizm va xizmat ko‘rsatish kasb-hunar kollejida 2014 yilda “Turistik xizmatlar menejeri” mutaxassisligi bo‘yicha 2014 yilda 124 nafar, 2016 yilda 112 nafar, “Mehmonxona va restoran xizmatlari menejeri” mutaxassisligi bo‘yicha 2014 yilda 62 nafar, 2016 yilda 52 nafar o‘rta maxsus kadr tayyorlangan. Hamda “Oshpazlik” mutaxassisligi bo‘yicha 2014 yilda kadr tayyorlanmagan, biroq 2016 yilda 58 nafar kadr tayyorlangan.

Chunki, kollejda “Oshpazlik” mutaxassisligi 2016 yilda ochilgan. Jami bo‘lib, ushbu kollejda 2014 yilda 186 nafar kadr tayyorlangan bo‘lsa, 2016 yilda 164 nafar kadr tayyorlangan.

Shuningdek, turizm sohasi mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish borasida Urganch shahrida 2014 yilda 360 nafar o‘quvchi o‘ringa mo‘ljallangan Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kasb-hunar kolleji qurilib, ishga tushirildi. Ushbu kasb-hunar kollejida 3 ta yo‘nalishda (mehmonxonalar va restoranlar menejeri, turistik xizmatlar tashkilotchisi, oshpaz) yiliga 120 nafardan mutaxassislar tayyorlanmoqda. Kollejda quyidagi mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar tayyorlanmoqda (3.1.3-jadval).

³³ Xorazm viloyati o‘rta maxsus ta’lim kasb-hunar ta’limi boshqarmasining ma’lumotlari asosida magistrant tomonidan tuzildi.

3.1.3-jadval

Urganch turizm va mehmonxona xo‘jaligi kollejida 2010-2016 yillarda tayyorlangan mutaxassislar haqida ma’lumot³⁴

№	Tayyorlov yo‘nalishi	1-bosqich	2-bosqich	Jami
1	Turistik xizmatlar tashkilotchisi	60	60	120
2	Mehmonxona va restoran xizmatlari menejeri	30	33	63
3	Oshpaz	33	29	62
Jami:		123	122	245

Bugungi kunda Urganch turizm va mehmonxona xo‘jaligi kasb-hunar kollejida turizm sohasida kadr bo‘lib etishadigan, bugungi kunda 382 nafar o‘quvchi ta’lim olmoqda. Dastlab 2014 yilda kollejdagi uchta yo‘nalishga “Turistik xizmatlar tashkilotchisi” va “Oshpazlik va mehmonxona restoran menejeri” yo‘nalishi bo‘yicha 124 nafar o‘quvchi qabul qilingan bo‘lsa, 2015 yilda 130 nafar va 2016 yil 128 nafar o‘quvchi qabul qilindi.

Kollejda tayyorlov yo‘nalishi “Turizm” bo‘lgan 3810101 – “Turistik xizmatlar tashkilotchisi” kasbi bo‘yicha o‘rta maxsus kadrlar tayyorlanadi. Ushbu kasbni egallagan o‘quvchi kelajakda turoperator, turagent, turanimator va ekskursovod bo‘lib etishadi. Shuningdek, “Turizm va mehmonxona xo‘jaligi servisi” tayyorlov yo‘nalishi bo‘lgan 3811702 - “Oshpaz” kasbi o‘z ichiga milliy va xorijiy taomlar oshpazi, bolalar va parhez taomlar oshpazi, qandolatchi va novvoy ixtisosliklarini birlashtiradi. Hamda ta’lim rus tilida olib boriladigan 3811700 – “Turizm servisi va mehmonxona xo‘jaligi” tayyorlov yo‘nalishida 3811701 – “Mehmonxona va restoran xizmatlari menejeri” kasbi o‘z ichiga administrator, bronlashtirish fondi agenti hamda nomer fondi menejeri kabi ixtisosliklarini oladi.

Umuman olganda, Xorazm viloyatida turizmga ixtisoslashgan kasb-hunar kollejlari kadrlar tayyorlash jarayoni va asosiy yo‘nalishlari avvalo faoliyat

³⁴ Xorazm viloyati o‘rta maxsus ta’lim kasb-hunar ta’limi boshqarmasining ma’lumotlari asosida magistrant tomonidan tuzildi.

yuritayotgan kollejlarning ish faoliyati va o'quv-ishlab chiqarish jarayoni va amaliyotiga bog'liq omil bo'lib xizmat qiladi.

3.2. Xorazm viloyati turizm sohasida oliy o'quv yurtining ishtiroki va faoliyat yo'nalishlari

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" to'g'risidagi qonunlariga muvofiq O'zbekistonning ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy ijtimoiy va madaniy rivojlanishini masalasini rivojlangan mamlakatlar darajasida hal etishga qodir, yuksak darajada ma'naviy, madaniy va axloqiy sifatlarga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash oliy ta'lim tizimining vazifasi hisoblanadi. Xususan, oliy ta'lim tizimining asosiy vazifalari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:³⁵

- davlat ta'lim standartlariga muvofiq zamonaviy ta'lim-kasb dasturlari asosida sifatli o'qituvchi ta'minlash va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash;

- yuqori malakali ilmiy pedagogik kadrlar, jumladan xorijiy ilmiy markazlarda tayyorlash;

- mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish istiqboli jamiyat ehtiyoji fan, texnika, texnologiya, iqtisodiyot va madaniyat zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib, kadrlar tayyorlashning tashkil etilishi va usulini muntazam takomillashtirish;

- ta'limni individuallashtirish masofadan o'qitishning yangi pedagogik va informatsion texnologiyalari vositalari joriy etish;

- mustaqillik g'oyalariga sodiqlik, Vatanga, oilaga va atrof-muhitga muhabbat ruhida milliy uyg'onish mafkurasi hamda umuminsoniy qadriyatlarni chuqur his etish asosida oliy ta'limning gumanitar yo'nalishini yoshlar tarbiyasini ta'minlash;

- ilmiy-pedagogik xodimlar va ta'lim oluvchilar ilmiy tadqiqotlari hamda ijodiy faoliyatlari vositasida fan-texnika va texnologiyani rivojlantirish olingan natijalaridan ta'lim jarayonida va tarmoqlarda foydalanish iqtisodiyoti;

³⁵ Peregudov L.V., Saidov M.X. Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti. – T.: Moliya, 2002.

- ta'lim fan va ishlab chiqarishning samarali uyg'unlanuvchi usullarini amaliyotga tadbiq etish;

- ta'lim xizmati ko'rsatish bozorida raqobat muhitini yuzaga keltirish;

- rivojlangan mamlakatlar bilan oliy ta'lim sohasida o'zaro foydali aloqalarni rivojlantirish;

- oliy ta'lim muassasalari boshqaruvini takomillashtirish va mustaqilligini kengaytirish. Shu bilan birga, oliy ta'lim tizimi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- davlat qarashli va davlatga aloqadorsiz oliy ta'lim muassasalari bular davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim-kasb dasturini amalga oshiradi;

- ilmiy-pedagogik muassasalar, bular oliy ta'limni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini olib boradi;

- ta'limni boshqaruvchi davlat idoralari, shuningdek, ular tasarrufidagi korxona muassasa va tashkilotlar.

Oliy ta'limda ikki bosqich mavjud bo'ladi, ya'ni bakalavriat va magistratura bosqichlari.

- bakalavriat. Bu ixtisosliklar yo'nalishi bo'yicha o'qish muddati to'rt yildan kam bo'lmagan nazariy va amaliy bilim beruvchi tayanch oliy ta'lim hisoblanadi.

- magistratura. Bu bakalavriat asosida o'quv muddati ikki yildan kam bo'lmagan muayyan ixtisoslik bo'yicha oliy ta'lim sanaladi.

Oliy ta'limda oliy va oliy ta'lim muassasasini tugatgandan keyingi ta'lim-kasb dasturini ta'limning turli sohalari va tayyorlashning yo'nalishlari bo'yicha amalga oshiriladi, iqtisodiyot turli sohalarining mutaxassislari oliy ta'lim muassasalari kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar pedagog xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashini amalga oshiradi, fanning turli sohalari bo'yicha nazariy-amaliy tadqiqotlar olib boradi hamda fanlarning tegishli sohalarida ilmiy-metodik markaz hisoblanadi.

Oliy ta'lim tizimi oliy o'quv yurtlari faoliyatini ko'rsatuvchi jarayon sifatida qaraladi. Xorazm viloyatida uchta oliy ta'lim muassasalari (Urganch Davlat universiteti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch

filiali va Toshkent Tibbiyot akademiyasi Urganch filiali) faoliyat ko'rsatib, ulardan faqat Urganch Davlat universitetida turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlanadi. Ushbu oliygoh Xorazm viloyati turizm sohasida faoliyat yuritadigan malakali kadrlarni tayyorlaydi va unda kadrlarni tayyorlashning muhim yo'nalishlari amalga oshiriladi.

Urganch Davlat universiteti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 28 fevraldagi 356-sonli Qarori asosida tashqil qilingan. Hozirda universitetda 9 ta fakultet, 31 ta kafedra, 43 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi 13 ta magistratura mutaxassisligi mavjud bo'lib, jami 7674 nafar talaba tahsil olmoqda. Universitetda jami shtatlar soni 606 ta bo'lib, asosiy shtatda 560 nafar professor-o'qituvchilar dars berishadi. Turizm sohasida kadrlarni tayyorlashda ushbu oliy o'quv yurti faol ishtirok qilmoqda va o'zining turli faoliyat yo'nalishlariga ega hisoblanadi.

Urganch Davlat universiteti Ilmiy kengashining 2011 yil 29 avgustdagi Qaroriga muvofiq, Iqtisodiyot fakulteti tarkibida "Turizm" kafedrasini tashkil etildi. 2015-2016 o'quv yilidan boshlab, iqtisodiyot fakulteti Turizm va iqtisodiyot fakultetiga aylantirildi. Xususan, 2008 yildan boshlab, fakultet qoshida "Turizm" yo'nalishi ilk bora tashkil etildi. Hamda 2013 yildan ushbu kafedrada "Turizm (faoliyat turlari)" mutaxassisligi bo'yicha magistratura mutaxassisligi tashkil etildi.

Bugungi kunda "Turizm" kafedrasida bakalavriat ta'limi bo'yicha 5610300 - "Turizm" (Xalqaro va ichki turizm) va 5610200 - "Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" yo'nalishlarda talabalar tahsil olmoqdalar. Shuningdek, magistratura ta'limi bo'yicha 5A610301 - "Turizm (Xalqaro va ichki turizm)" mutaxassisligi tashkil qilingan.

5610300 - "Turizm (xalqaro va ichki turizm)" ta'lim yo'nalishi - xizmat ko'rsatish sohasidagi yo'nalish bo'lib, u o'z ichiga xalqaro va ichki turizm, uning xizmatlarini tashkil etishni o'z ichiga oladi. Bakalavrlarning kasbiy faoliyati quyidagilarni qamrab oladi:

- xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda xalqaro va ichki turizmning o'rnini va ahamiyatini yaxshi bilish;

- turizm sohasi korxonalari faoliyatini tashkillashtirish, boshqarish asoslarini mukammal bilish;

- O'zbekistonda xalqaro va ichki turizmning rivojlanish salohiyatini aniqlay olish;

- xalqaro va ichki turizm sohasida sifatli xizmat ko'rsatishni tashkil qilish hamda boshqarish malakalarini mukammal egallash;

- turizm xizmatlari, mahsulotlari, tovar yaratish va sifatini baholay olish.

Bakalavrlar kasbiy faoliyatining obyektlari bo'lib, turistik mahsulotlarni ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishda xalqaro va ichki turizm faoliyatidagi turistik firmalar, mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalari, milliy va xorijiy turistlarga ovqatlantirish xizmatlarini tashkil etuvchi korxonalar, ekskursiya va transport xizmatlarini tashkil etuvchi korxonalari hisoblanadi. Bakalavrlar kasbiy faoliyatining turlari bo'lib, quyidagi sohalar hisoblanadi (3.2.1-jadval):

3.2.1-jadval

Bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisligi bo'yicha kasbiy faoliyatining turlari haqida ma'lumot³⁶

№	Yo'nalish va mutaxassisliklar nomi	Kasbiy faoliyatining turlari
1	5610300 – “Turizm (xalqaro va ichki turizm)” ta’lim yo’nalishi	ilmiy-tadqiqot ishlab chiqarish sohasi tashkiliy-boshqaruv sohasidagi faoliyat
2	5610200 – “Mehmonxona xo’jaligini tashkil etish va boshqarish” ta’lim yo’nalishi	ilmiy va ilmiy-tadqiqot ishlab chiqarish sohasi foydalanish va servis xizmati ko'rsatish texnologik va tashkiliy boshqaruv o'rta maxsus ta'lim tizimida pedagogik faoliyat ijtimoiy va jamoa sohasidagi faoliyati
3	5A610301 - “Turizm” (xalqaro va ichki turizm) magistratura mutaxassisligi	ilmiy-tadqiqot faoliyati tashkiliy-boshqaruv faoliyati oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda o'rta maxsus ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat konsalting xizmati davlat va xususiy turistik korxonalar

³⁶ Urganch Davlat universiteti “Turizm” kafedrasining ma'lumotlari asosida magistrant tomonidan tuzildi.

5610300 – “Turizm (xalqaro va ichki turizm)” bakalavriat ta’lim yo‘nalishini tugatgan bakalavr pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tgandan keyin o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida maxsus fanlardan dars berish huquqiga ega bo‘ladi.

5610300 – “Turizm (xalqaro va ichki turizm)” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr kasbiy tayyorgarlikdan keyin, 5A610301-“Turizm (Xalqaro va ichki)” va 5A610302 - “Turoperatorlik xizmatini tashkil etish” magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha ikki yildan kam bo‘lmagan muddatda o‘qishni davom ettirishi mumkin.

Shuningdek, bakalavr o‘rnatilgan tartibda oliy ta’lim muassasalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlarida mustaqil izlanuvchi sifatida o‘qishni davom ettirishi mumkin.

5610200 – “Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish” ta’lim yo‘nalishi o‘z ichiga turizm industriyasidagi faoliyatni va mehmonxona xo‘jaligiga servis xizmatlarini ko‘rsatish usullari va uslublari majmuasini o‘z ichiga oladi. 5610200 – “Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr fundamental, umumkasbiy va maxsus tayyorgarligiga muvofiq quyidagi vazifalarni qamrab oladi:

- iqtisodiy-ishlab chiqarish (xizmat):
- iqtisodiy-rejalashtirish:
- ishlab chiqarish-boshqaruv:
- ilmiy-tadqiqot.

Bakalavrlarning kasbiy faoliyati obyektlari bo‘lib, mehmonxona xo‘jaligiga oid korxonalar, shuningdek, milliy va xorijiy turistlarga xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar, turistlik firmalar va agentliklar, turistlarni joylashtirish tashkilotlari va korxonalari hisoblanadi (3.2.1-jadval):

5610200 – “Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr ta’lim dasturini o‘zlashtirish natijasida kasbiy tayyorgarlikning asosiy turlari va ixtisoslikning tayyorgarligiga mos quyidagi kasbiy vazifalar belgilanadi:

- ilmiy va ilmiy-tadqiqot faoliyati:
- foydalanish va servis xizmati ko'rsatish:
- ishlab chiqarish-texnologik faoliyati.

5610200 – “Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish” ta'lim yo'nalish bakalavri quyidagi 5A610101 – “Xizmatlar sohasi (faoliyat turlari va yo'nalishlari bo'yicha)”, 5A610201 – “Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish”, 5A610301 – “Turizm (xalqaro va ichki)” va 5A610302 – “Turoperatorlik xizmatlarini tashkil etish” mutaxassisliklari hamda ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan belgilangan, turdosh ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklari) bo'yicha ikki yildan kam bo'lmagan muddatda magistraturada o'qishni davom ettirishi mumkin.

5610300 – “Turizm (Xalqaro va ichki)” ta'lim yo'nalishi negizidagi 5A610301 - “Turizm” (xalqaro va ichki turizm) magistratura mutaxassisligining kasbiy faoliyatlari sohalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish;
- O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi va uning viloyatlardagi mintaqaviy bo'limlarida ishlash;
- xususiy turistik firma va mehmonxonalarda kompleks masalalarni echish.

Magistrlar kasbiy faoliyatining obyektlari bo'lib, turizm sohasidagi barcha faoliyat turlarini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlar majmui, turistik xizmatlar bozori subyektlari faoliyatini takomillashtirish jarayonlari, turizm sohasida strategik rejalashtirishni amalga oshirish jarayonlari hamda xorijiy turistlarga turistik xizmatlarni tashkil etish tizimi hisoblanadi. Magistr kasbiy faoliyatining turlari bo'lib, quyidagi faoliyatlar hisoblanadi (3.2.1-jadval).

Ushbu mutaxassislik bo'yicha tayyorlangan magistr magistraturaning ta'lim dasturiga ko'ra sohaviy mutaxassisligiga mos kasbiy faoliyatida quyidagi

vazifalarni bajarishga tayyor bo'lishi kerak hamda bevosita o'zi amalga oshirishi talab etiladi.

Darhaqiqat, ta'lim mutaxassisligi ilmiy-tadqiqot faoliyati bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- mutaxassislikka mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini tahlil qilishi;
- O'zbekistonning mavjud turistik salohiyatidan foydalanib yangi turistik paketlar ishlab chiqish;
- namunaviy metodikalar va boshqalar bo'yicha eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish va ularning natijalarini qayta ishlash;
- ilmiy hisobotlar va tushuntirish xatlarini ishlab chiqish;
- o'tkazilayotgan tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqishi, referat va bibliografiyalarni tuzishi;
- ilmiy seminarlar ishida ishtirok etishi;
- ilmiy mavzularga mos jurnallarga maqolalar tayyorlash.

Magistratura bitiruvchilari magistr akademik darajasini olgandan so'ng, oliy ta'lim muassasalarida hamda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlarida katta ilmiy xodim-izlanuvchi va mustaqil izlanuvchi sifatida ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirishi mumkin. Magistr darajasi turizm sohasidagi tayyorlangan oliy ma'lumotli kadr hisoblanadi.

Shuningdek, hozirgi kungacha universitetning "Turizm" kafedrası tomonidan "Turizm", "Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" va "Turizm va mehmonxona xo'jaligi servisi" ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bitiruvchi kadrlar tayyorlandi va ular turizmga ixtisoslashgan korxona va tashkilotlarida o'z mehnat faoliyatini olib bormoqdalar hamda eng yuqori malakali kadr bo'lish uchun o'z malakalarini oshirib bormoqdalar.

Shundan kelib chiqib, 2012-2016 yillarda Urganch Davlat universitetida turizm sohasi bo'yicha tayyorlanayotgan kadrlar tarkibida o'zgarishlar amalga oshirilmiqda, "Turizm" va "Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" ta'lim yo'nalishlarining soni oshib yoki kamayib bormoqda (3.2.2-jadval).

3.2.2-jadval

2012-2016 yillarda Urganch Davlat universitetida tayyorlangan turizm sohasining kadrlari haqida ma'lumot³⁷

Ta'lim yo'nalishlari nomi	Yillar					Jami
	2012	2013	2014	2015	2016	
“Turizm (faoliyat turlari)”	24	24	25	40	51	154
“Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish”	-	-	-	23	27	50
“Turizm va mehmonxona xo'jaligi servisi”	-	-	24	-	-	24
Jami:	24	24	49	63	78	228

Jadvalga asosan, 2012-2016 yillarda Urganch Davlat universitetida turizm sohasi bo'yicha kadrlar tayyorlanib, bugungi kungacha “Turizm (faoliyat turlari)” yo'nalishi bo'yicha 154 nafar, “Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish” yo'nalishi bo'yicha 50 nafar va “Turizm va mehmonxona xo'jaligi servisi” yo'nalishi bo'yicha 24 nafar, ya'ni jami 228 nafar kadr tayyorlandi.

“Turizm (faoliyat turlari)” ta'lim yo'nalishi 2008 yilda tashkil etildi va hozirgi kungacha ushbu ta'lim yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlanmoqda. “Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish” ta'lim yo'nalishi bo'yicha kadrlar 2011 yildan boshlab tashkil etildi. Shuningdek, “Turizm va mehmonxona xo'jaligi servisi” ta'lim yo'nalishi bo'yicha kadrlar 2011-2014 yillarda tayyorlandi.

Umuman olganda, Xorazm viloyatining turizm sohasida Urganch Davlat universitetida malakali kadrlar tayyorlanmoqda hamda turizm sohasidagi kadrlarga bo'lgan talabning yuqoriligi sababli ularni universitetga qabul qilish darajasi oshib bormoqda.

³⁷ Urganch Davlat universiteti “Turizm” kafedrasining ma'lumotlari asosida magistrant tomonidan tuzildi

3.3. Xorazm viloyati turizm sohasida kelajakda kadrlar tayyorlashning zamonaviy vazifalari va istiqbollari

Xorazm viloyati turizm sohasida kelajakda kadrlar tayyorlash vazifalari va istiqbollari bevosita viloyatda turizm sohasining taraqqiyoti tufayli ta'minlanadi. Chunki, hozirgi kunda Xorazm viloyati iqtisodiyotida turizm sohasiga e'tibor kuchayib bormoqda. Turizm sohasining rivojlanishi natijasida viloyatda transport, bozor infratuzilmasi, savdo-sotiq, oziq-ovqat tarmoqlari, qurilish, hunarmandchilik va boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlari barqaror rivojlanib boradi. Natijada, viloyatda bu soha salmoqli hissasi bilan respublika budjetiga valyuta tushumini ta'minlaydi.


Turizm sohasini rivojlantirish avvalo, viloyatda turizm sohasidagi hamkorlikning samarali yo'lga qo'yilishi va kadrlar tayyorlashning sifatiga chambarchas bog'liq. Turizm sohasidagi kadrlarning asosida kishi, ya'ni "inson omili" yotadi hamda uning rivoji ta'lim sohasining taraqqiyoti bilan bog'liq. Ushbu chora-tadbirlar haqida respublikamiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda, "Bugungi kunda ta'lim sohasidagi barcha sa'y-harakatlarning dastlabki quvonchli mevasi sifatida bir necha xorijiy tillarda erkin gaplasha oladigan va shu bilan birga, o'z fikrini ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta oladigan yangi mutaxassislar avlodini ko'rganda, hech shubhasiz, yurtimizdagi har bir ota-ona, ustoz-murabbiy, ezgu niyatli har qaysi insonning qalbi g'urur-iftixor tuyg'ulariga to'ladi.

Darhaqiqat, Xorazm viloyatida kelajakda turizm sohasidagi kadrlar tayyorlash masalasini o'rganish barqaror rivojlantirish asosida borishi lozim. Bu holat bugungi kunda o'ta muhim masala bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, turizm sohasida kadrlar tayyorlash mehmonxonada xodimlarni boshqarish bu ayrim xodimlarga mehmonxona maqsadlariga erishish uchun tashabbuskorlik bilan, ongli, ijodiy mehnat qilishga eng maqbul shart-sharoitlarni yaratish maqsadida jamoaga sobitqadamlik bilan har tomonlama ta'sir o'tkazish hisoblanadi.

Shu bilan birga, turizm sohasida kadrlar tayyorlash borasida sayyohlik sohasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Ushbu sohada kadrlar tayyorlash

tizimini takomillashtirish, samaradorligini oshirish, xizmat ko‘rsatish, sayyohlik va mehmonxona biznesi va menejmenti yo‘nalishi bo‘yicha xalqaro kadrlar tayyorlash borasida keng qamrovli ishlar olib borildi. Bu borada Birinchi Prezident I.A.Karimovning “O‘zbekistonda turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi qonuni va boshqa hujjatlar soha taraqqiyotida muhim omil bo‘lmoqda.

Shundan kelib chiqib, viloyat turizm sohasida kelajakda kadrlar tayyorlash vazifalari uni tayyorlashdagi istiqbolli yo‘nalishlar bilan belgilanadi (3.3.1-rasm).



3.3.1-rasm. Turizm sohasida kadrlar tayyorlashdagi istiqbolli yo‘nalishlar³⁸

Keltirilgan rasmga asosan, Xorazm viloyatining turizmi sohasida kadrlar tayyorlashdagi istiqbolli yo‘nalishlar bo‘lib, rahbar kadrlar ishining to‘g‘ri tashkillashtirilishiga bog‘liq bo‘ladi.

Ushbu keltirilgan turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash ishini yanada takomillashtirish maqsadida turizm korxona va tashkilotlari bilan innovatsion korporativ hamkorlik bo‘yicha ishlarni uzluksiz amalga oshirish lozim.

³⁸ Manba: Карякин А.М. Управление персоналом: Электронное учебное пособие. 3-я редакция. Иван.гос.энер.ун-т. - Иваново, 2005.

Demak, ta'lim muassasalarida innovatsion korporativ hamkorlik – ta'lim sifatini oshirish, nazariy va amaliy bilim, k̄y nikmalarni shakllantirish maqsadlarida iste'molchilar bilan hamkorlikda yangi g'oya, metodlari hamda ȳ quv resurslari, yaratish, mavjud muammolar yechimini topish va ulardan ta'lim menejmentida samarali foydalanishdir.³⁹

Bu borada viloyatdagi turizmga ixtisoslashgan korxona va tashkilotlar o'rtasida, xususan Urganch Davlat universiteti bilan Urganch turizm va tadbirkorlik kolleji, Urganch turizm va mehmonxona xo'jaligi kolleji va "Fayz" mehmonxonasi o'rtasida hamkorlik shartnomasi imzolandi. Bugungi kunda "Ta'lim turlari o'rtasidagi o'zaro integratsiya jarayonini kuchaytirish hamda ular o'rtasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash" to'g'risidagi shartnomaga muvofiq ishlar olib borilmoqda.

Ushbu korxonalarda korporativ hamkorlik bo'yicha qilingan ishlar innovatsion-korporativ hamkorlik haqidagi hujjatlar bilan rasmiylashtirilib borilmoqda. 1-ilovada ham "Turizm" kafedrasini bilan hamkorlik aloqasi o'rnatgan boshqa tashkilotlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Bu esa kelajakda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 15 iyuldagi "Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-916-sonli Qarorining ijrosini ta'minlashga qaratilgan.

Shu bilan birga, hamkorlik ishlarida kafedra innovatsion guruh tarkibiga soha olimlari, etuk malakali kadrlar hamda iqtidorli talabalarni jalb etish, innovatsion guruhga ilmiy izlanishlar hamda tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berish, korxonalarga axborot-maslahat va tadqiqotchilik xizmatlarini hamda uning faoliyatidagi muammolarni hal qilishda qo'shimcha tuziladigan xo'jalik shartnomalari asosida amaliy yordam ko'rsatish hamda

³⁹ "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy-elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2016 yil.

ularning ishchi xodimlari malakasini oshirish hamda qayta tayyorlab berish kabi vazifalarni amalga oshirish rejalari ishlab chiqilmoqda va yanada takomillashmoqda.

Ulardan tashqari, Urganch davlat universitetida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 20 martdagi "2013-2015 yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish Dasturi to'g'risida" PQ-1940-sonli Qaroridagi "Turizm sohasida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish" chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish bo'yicha ijobiy yo'nalishdagi bir qator ishlar bajarildi. Dastur jami 5 ta bo'lim va 120 ta tadbirlar ro'yxatidan iborat hamda quyidagi qismlarni o'z ichiga oladi:

- turistik infratuzilmani rivojlantirish;
- turistik mahsulotlar xilma-xilligini oshirish;
- turistlarni jalb qilishga qaratilgan tadbirlarni ko'paytirish;
- turizmga bilvosita bog'liq bo'lgan infratuzilma obyektlari holatini yaxshilash;
- turizm sohasida malakali kadr tayyorlash va ular malakasini oshirish.

Mazkur ishlarni to'la amalga oshirish maqsadida ushbu qabul qilingan dasturning Urganch Davlat universitetiga tegishli "Turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish" bandining ijrosini ta'minlash bo'yicha tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, u quyidagi yo'nalishlarga ajratildi:

- turizm sohasida ta'lim muassasalari, jumladan Eskuelsk turizm va mehmonxondo'stlik universiteti (Ispaniya), Shveysariyaning turizm va mehmonxondo'stlik maktabi, Avstraliya turizm va mehmonxona biznesi maktabi, Tokio turizm instituti bilan hamkorlik o'rnatish;

- respublika oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Urganch Davlat universitetida turizm sohasida "WTO - TedQual (Tourism Education Qualification)" ta'lim sifatini sertifikatlash tizimi TedQualni joriy qilish bo'yicha taklif tayyorlash (2-ilova). "WTO - TedQual (Tourism Education Qualification)" ta'lim sifatini sertifikatlash tizimini joriy qilish bo'yicha belgilangan vazifalarni hal qilish maqsadida o'quv-amaliyot xonalari

zarur jihozlari bilan ta'minlanishi lozim (3.3.1-jadval).

3.3.1-jadval

“WTO - TedQual (Tourism Education Qualification)” tizimi uchun tashkillashtiriladigan o'quv-amaliyot xonasi jihozlarining tarkibi⁴⁰

Ma'mur ustuni
maxsus ustun
internetga ulangan shaxsiy kompyuter majmuasi
faks va telefon, nusxa ko'chirish apparati
soat va boshqa zarur jihozlar
Yotoqxona jihozlari
divan, krovat va tumbochka
stol, stol lampasi va televizor
krovat uchun choyshablar majmuasi
vanna yoki dush uchun sochiqlar majmuasi
parfyumeriya vositalari yoki maketlari va h.k.
Oshxona jihozlari
dasturxonlar
salfetkalar
sochiq
gaz plitasi, muzlatgich va h.k.
Restoran jihozlari
katta stol hajmi
choy va kofe tayyorlash jihozlari
qoshiq, sanchiqi, choy qoshiq, pichoq, likobcha va tarelkalar, non mahsulotlari uchun plastmassa idish
piyola, choynak, stakan va grafin

Ushbu takliflar kelajakda Xorazm viloyati turizmini rivojlantirishda kadrlar tayyorlash ishlarini takomillashtirish chora-tadbirlari kelajakda turizm sohasida

⁴⁰ Urganch Davlat universiteti “Turizm” kafedrasining ma'lumotlari asosida magistrant tomonidan tuzildi

kadrlar tayyorlashdagi istiqbolli yoʻnalishlarni amalga oshirish va oʻzaro hamkorlikni taʼminlaydigan zamonaviy kadrlarni tayyorlash uchun muhim hisoblanadi.

Shular bilan birgalikda, Xorazm viloyati turizm sohasida kelajakda kadrlar tayyorlashning zamonaviy vazifalari va istiqbollari turistik sohadagi korxona va tashkilotlar bilan hamkorlik munosabatlariga bogʻliq boʻladi. Bu munosabatlar yoʻnalishlari boʻyicha turistik korxonalarning kadrlarga boʻlgan istiqbolli rejasi asosida aniqlanadi.

Jumladan, oliy taʼlim muassasasi, yaʼni Urganch Davlat universiteti Turizm va iqtisodiyot fakulteti “Turizm” kafedrasi bilan turizm va xizmat koʻrsatishga ixtisoslashga korxona va tashkilotlar oʻrtasidagi integratsiyalashuv jarayonlarini takomillashtirish maqsadida 2020-2024 yillarga moʻljallangan korxona va tashkilotlarning kadrlarga boʻlgan ehtiyoji oʻrganildi. Bu kadrlarni tayyorlashga boʻlgan kelajakdagi istiqbol rejasi sifatida namoyon boʻladi hamda kadrlarga boʻlgan zamonaviy talabni shakllantirishga sabab boʻladi.

Shularga asosan, turizm sohasidagi kadrlarga boʻlgan ehtiyoj kvota shaklida, yaʼni bakalavriat yoʻnalishi va magistratura mutaxassisligini bitkazuvchi talabalarni kelajakda ishga qabul qilishni rejalashtirish boʻyicha alohida guruhlariga ajratiladi. Ushbu guruhlashda turizm sohasida ishlaydigan kadrlarga boʻlgan ehtiyojning oshib borishi koʻrinadi hamda turli oʻzgarishlarga egaligi koʻzga tashlanadi.

Darhaqiqat, 2016 yilda olib borilgan kuzatishlar natijasida kelajakda jami 23 ta turistik va xizmat koʻrsatish korxonalarini bakalavriat yoʻnalishini bitkazib, oʻzining korxonalariga borib ishlaydigan kadrlarni tayyorlab berish boʻyicha ehtiyojini maʼlum qildilar va buni 2020-2024 yillarda davrda amalga oshirish moʻljallandi. Ana shu maʼlumotlarga asosan, “Turizm (faoliyat turlari)” va “Mehmonxona xoʻjaligini tashkil etish va boshqarish” bakalavriat taʼlim yoʻnalishi boʻyicha turistik korxonalarning kadrlarga boʻlgan istiqbolli rejasi tuzib chiqildi hamda ularning boʻlgʻusu kadrlarni qabul qilish davri besh yilni oʻz ichiga oladi (3.3.2-jadval).

3.3.2-jadval

**Bakalavriat yo‘nalishlari bo‘yicha turistik korxonalarning kadrlarga
bo‘lgan istiqbolli rejasi⁴¹**

№	Turistik korxonalarning nomi	Yillar				
		2020	2021	2022	2023	2024
1	“Urganch el tur” MCHJ	-	1	2	1	-
2	“Navro‘z” mehmonxonasi	-	2	1	1	-
3	OOO “Javhar hulkar yulduzi”	1	1	-	-	-
4	“Xorazm Palas” mehmonxonasi MCHJ	5	5	5	5	5
5	Xiva turizm va xizmat ko‘rsatish kasb-hunar kolleji	8	7	7	6	7
6	“Arqanchi” MCHJ	8	4	4	4	4
7	Xiva “Ichan qal’a” davlat qo‘riqxonasi	1	1	1	1	1
8	“Azia Xiva” mehmonxonasi	6	6	6	6	6
9	“Zafarbek” turistik firmasi	2	2	2	2	2
10	“Nur layt” MCHJ	1	1	-	1	1
11	“Xorazm tur plyus” MCHJ	6	4	4	4	4
12	“Urganch mehmonxonasi” MCHJ	3	3	3	3	3
13	“Zuxro Travel” MCHJ	2	2	2	2	2
14	“Grin Grand Garden” MCHJ	1	1	-	-	-
15	“Nur-Jahon Urganch” xususiy firmasi	6	2	2	2	2
16	“Urganch Raxim Rahmon” MCHJ	5	5	4	3	3
17	“Oltin toj” xususiy firmasi	3	3	3	-	3
18	“Jasur mobil” xususiy korxonasi	6	6	4	4	2
19	Urganch turizm va tadbirkorlik KXK	2	2	2	2	2
20	“Elshod” mehmonxonasi	4	2	2	1	3
21	“O‘zbekturizm” MK Xorazm viloyati bo‘linmasi (Hozirgi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi Xorazm viloyati boshqarmasi)	2	2	2	2	2
22	“Sher” mehmonxonasi	4	3	4	1	-
23	Urganch turizm va mehmonxona xo‘jaligi kolleji KXK	1	1	1	2	1
Jami		77	66	61	53	53

Jadvalga asosan, viloyati miqyosidaga turistik korxonalar jami bo‘lib 2020 yilda 77 nafar, 2021 yilda 66 nafar, 2022 yilda 61 nafar, 2023 yilda 53 nafar hamda 2024 yilda 53 nafar kadrni ishga olishlari keltirilgan.

Undan tashqari, kuzatishlarga muvofiq, “Turizm (Xalqaro va ichki turizm)” magistratura mutaxassisligi bo‘yicha turistik korxonalarining kadrlarga bo‘lgan istiqbolli rejasi to‘rtta korxonaga to‘g‘ri keladi. Bu esa ushbu turizm va xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashgan korxonalarining magistratura talabalarini qabul qilishga ehtiyoji yuqoriligini ko‘rsatadi. (3.3.3-jadval).

3.3.3-jadval

Magistratura mutaxassisligi bo‘yicha turistik korxonalarining kadrlarga bo‘lgan istiqbolli rejasi⁴²

№	Turistik korxonalarining nomi	Yillar		
		2018	2019	2020
1	“Nur-Jahon Urganch” xususiy firmasi	1	1	1
2	“Elshod” Xotel	1	1	1
3	Xiva turizm va xizmat ko‘rsatish kasb-hunar kolleji	2	1	1
4	Urganch turizm va tadbirkorlik KXK	1	1	1
Jami		5	4	4

Ushbu jadvalga asosan, viloyat bo‘yicha jami 2018 yilda 5 nafar, 2019 yilda 4 nafar va 2020 yilda nafar magistratura talabalari kadr bo‘lib turistik korxonalarga joylashadilar. Shuningdek, bugungi kunda Xorazm viloyatida turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash bo‘yicha zamonaviy istiqbolli yo‘nalishlar Urganch davlat universiteti turizm va iqtisodiyot fakultetida ishlab chiqilgan. Bunga asosan, kelajakda quyidagi yo‘nalishlardagi chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilandi:

- turizm sohasiga yo‘naltirilgan amaliy ingliz tilidan qo‘shimcha o‘qitish kurslarini tashkil qilish;
- fakultetda gid ekskursovodlarni o‘qitish bo‘yicha maxsus kurslarni tashkil qilish;
- turizm yo‘nalishi va mutaxassisligi bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyalarini bevosita amaliyot obyektlari bilan bog‘lash;
- turopereyting fanidan o‘quv kursini tashkillashtirish;

⁴¹ Urganch Davlat universiteti “Turizm” kafedrasining ma’lumotlari asosida magistrant tomonidan tuzildi

⁴² O‘sha ma’lumotlar

- xorijiy davlatlardan yoki bevosita Xorazm viloyatidagi chet ellik turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha jalb etilgan volontyorlarni fakultetga jalb qilish;

- Samarqand iqtisodiyot va servis instituti va buxoro davlat universiteti ishtirokida videoanjuman uyushtirish;

- filologiya fakulteti kafedralari professor-o'qituvchilari bilan birga turizm va mehmonxona xo'jaligiga oid fanlarning 1000 ta tayanch iboralarni 4 tildagi (rus, ingliz, fransuz va nemis) lug'atini tayyorlash bo'yicha o'zbek tilidagi variantini filologiya fakultetiga taqdim etish;

- filologiya fakulteti tomonidan barcha sayyohlar, fuqarolar va keng jamoatchilik uchun amalda foydalanish qulay bo'lgan 5 tildagi so'zlashgich (o'zbek, rus, ingliz, nemis va fransuz) yaratish ustida ishlar olib borish.

Shular bilan birgalikda, "2017-2021 yillarda Xorazm viloyati va Xiva shahrining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish dasturi" qabul qilindi. Dasturning 5-bo'limi "Turizm sohasida mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish" deb nomlanadi hamda uning 57-61 bandlari bevosita turizm sohasida kadrlar tayyorlashni takomillashtiriga qaratilgan.

Ushbu banddagi vazifalarning asosiy qismi Urganch davlat universiteti tomonidan bajariladi. Universitet tomonidan dasturning bajarilish ijrosini ta'minlash maqsadida bir qator chora-tadbirlar amalga oshiriladi (3-ilova).

Umuman olganda, turizm sohasida malakali kadrlarni tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish uchun quyidagi yo'nalishlardagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz:

- innovatsion ta'lim tizimi sohalarini yaratishga shart-sharoitlar yaratib berish va uni fan tarmoqlarida keng qo'llash;

- ta'lim vositalaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish va bunga sabab bo'ladigan imkoniyatlarini aniqlash;

- ta'lim sohasida moddiy-texnika resurslaridan foydalanish darajasini o'zgartirish;

- ta'lim sohasiga yo'naltiriladigan moliyaviy resurslarning yangi manbalarini izlab topish va rivojlantirish;

- uch tomonlama “ishlab chiqarish-ta’lim-shaxs” amalga oshiriluvchi tizim o’rtasidagi aloqalarni kuchaytirish va h.k

Avvalo, shularni amalga oshirish natijasi ta’limning ustuvorlik tamoyili asosida bo’lishi lozim. Demak, yuqoridagilarni to’la amalga oshirish orqali kadrlar tayyorlash jarayonlarini kuchaytirish mumkin bo’ladi.

3-bob bo’yicha xulosa

Turizm uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishda Xorazm viloyati turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlaydigan oliy o’quv yurtlarida turizmga oid o’quv jarayoni va sifatini oshirishga qaratilgan tizimli ilmiy va ilmiy-uslubiy ishlarni olib borish, turizm sohasi rivojlangan davlatlarning tajribalarini o’rganish va o’zimizda tadbiq qilish, talabalarning amaliy ko’nikmalarini oshirish va bilim olishlari uchun sayyohlik agentliklari va mehmonxonalar, boshqa xizmat ko’rsatish korxonalari bilan hamkorlik o’rnatish muhim hisoblanadi.

Xorazm viloyati turizmi sohasida kadrlar tayyorlashning asosiy yo’nalishlari bo’lib quyidagilar hisoblanadi:

- oliy va o’rta maxsus ta’lim muassasalaridan bakalavriat ixtisosligi va magistratura mutaxassisligi bo’yicha kadrlarni tayyorlash. Jumladan, bu kadrlar Urganch Davlat universitetida tayyorlanmoqda.

- har bir sohada malaka oshirish va qayta tayyorlash orqali kadrlarni tayyorlash va bilimini o’stirish. Turizm sohasiga davlat tomonidan e’tiborning kuchayib borishi natijasida sohada malakali kadrlar tayyorlash miqdor va sifat jihatdan yangi bosqichga ko’tarildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Turizm sohasida xodimlar, ya'ni kadrlar siyosati strategiya va taktikaga ega bo'lib, xodimlar strategiyasi - jamiyatni ma'lum tarixiy taraqqiyot bosqichida uning asosiy maqsad va vazifalarini aniqlaydi. Xodimlar ishining taktikasi esa xodimlar bilan bo'ladigan joriy ishlarga aytiladi. Bunda hozirgi sharoitda xodimlar siyosatini ma'lum tartibda amalga oshirish ko'zda tutiladi. Bu xodimlarni to'g'ri tanlash, joy-joyiga qo'yish, o'qitish, boshqarish xodimlarini ishlatish va qayta tayyorlash hisoblanadi.

Ana shularni hisobga olib, O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va ular bilan ishlashni maqsadga muvofiq amalga oshirish niyatida milliy tajribani tahlil etish va ta'lim tizimidagi jahon tajribasi yutuqlari asosida xodimlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgan milliy dastur qabul qilindi. Bu esa kadrlar tayyorlash jarayonlarini amalga oshiruvchi va tezlashtiruvchi hujjat hisoblanadi.

Shuning uchun ham, mazkur dissertatsiya ishida turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish yo'llari Xorazm viloyati misolida olib o'rganildi va quyidagi xulosalarni shakllantirib, uni xolisona o'rganish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Chunki, kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biri bo'lib, u nazariy-uslubiy asoslarga ega. Kadrlar tayyorlash tizimi kadrlar tayyorlash jarayonini aks ettiradi. Kadrlarni malakali qilib tayyorlash bo'yicha respublikamizda aniq chora-tadbirlar qabul qilingan.

Kadrlar tayyorlash tizimi bo'yicha ilk bora respublikamizda kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi va uning muhim vazifalari kadrlarni har tomonlama barkamol qilib etishtirishdan iborat. Dastur uchta bosqichdan iborat bo'lib, ushbu bosqichlarning barchasi amalga oshirilgandan keyin, ta'lim sohasi tubdan isloh qilindi.

Shu boisdan ham, ishda kadrlar tayyorlash bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribalari olib o'rganildi va ulardan samarali foydalanish bo'yicha fikrlar bayon etildi. Xususan, AQSH, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya va Yaponiya kabi davlatlarda kadrlar tayyorlash xodimni boshqarish asosida ta'minlanadi.

Malakali kadrlar bu aslida turizm sohasida tayyorlanadigan kadrlar bo'lib, bugungi kunda ularga zamonaviy talablar qo'yilgan. Ular qatoriga bilimlilik, ijodkorlik, aqllilik, ma'naviy etuklik, tashabbuskorlik, donolik, sabr toqatlilik kabi ijobiy xislatlarni kiritish mumkin.

Bugungi kunda turizm sohasida kadrlar tayyorlashning holati uning muhim xususiyatlaridan kelib chiqib, bu o'z navbatida O'zbekiston turizm sohasidagi kadrlar tayyorlashda mavjud muammolar va ularning yechimlarini aniqlashni taqozo etadi. Eng avvalo, mazkur muammoni hal qilish maqsadida turizm sohasida kadrlar tayyorlashning bugungi holatiga haqiqiy baho berish va tahlilini amalga oshirish lozim.

Turizm sohasida kadrlar tayyorlashni bir qator davlat organlari amalga oshiradi. Shular qatorida O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining roli va ishtiroki alohida ahamiyatga ega. Qo'mitaning turizm sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi bu ishlarni amalga oshirishda faol ishtirok etadi.

Ishda Xorazm viloyati turizmi sohasida kadrlar tayyorlash jarayonining asosiy yo'nalish va istiqbollari ochib berilib, bu o'z navbatida Xorazm viloyatida turizmga ixtisoslashgan kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurti ning(Urganch Davlat universiteti) ishtiroki va faoliyati bilan belgilanadi. Ushbu xulosalarga asoslanib, ishda Xorazm viloyati turizm sohasida kelajakda kadrlar tayyorlashning zamonaviy vazifalari va istiqbollarini aniqlashga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Avvalo, malakali kadr bo'lish asosida boshqa aynan shunday mutaxassis kadr (xodim, inson) bilan kelajakda ishga kirishi rejalashtirilgan, shular qatorida ularga ko'ra yanada yaxshi ishlay oladigan, barcha zamonaviy va dunyoviy bilimlarni egallagan, o'z bilimi bilan boshqalardan ajralib turadigan, aniq tafakkur va keng dunyoqarashga ega bo'ladigan ideal inson yotadi.

Shu bilan birga, turizm sohasidagi ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalaridan bakalavriat ixtisosligi

va magistratura mutaxassisligi bo'yicha kadrlarni tayyorlash. Jumladan, turizm sohasidagi etuk kadrlar respublikamizdagi turizmga nisbatan ixtisoslashgan kollejlardan bir qatorda oliy o'quv yurtlarida tayyorlanmoqda.

Bular jumlasiga Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Buxoro Davlat universiteti, Urganch Davlat universiteti kabi oliy ta'lim muassasalarida malakali va etuk qilib tayyorlanadigan turizm sohasidagi kadrlarni ko'rsatish mumkin.

Darhaqiqat, Urganch Davlat universitetida birinchi bo'lib, 2008-2012 yillarda turizm sohasida ilk bakalavr kadrlar tayyorlandi. So'ngra, keyingi yillarda bakalavriat yo'nalishi qabulining soni oshib bordi, ya'ni "Servis (turizm va mehmonxona xo'jaligi bo'yicha)" va "Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" bakalavriat ta'lim yo'nalishlari ochilib, talabalar o'qidilar va kadr bo'lib yetishdilar.

Keyinchalik, 2013-2015 yillarda "Turizm" mutaxassisligi bo'yicha magistratura tashkil qilinib, uni 4 nafar magistrant bitkazib, xizmat ko'rsatish va turizm sohasida kadr bo'lib yetishdilar hamda bugungi kunda ular o'zlariga berkitilgan korxona va tashkilotlarda samarali faoliyat yuritmoqdalar.

- har bir sohada malaka oshirish va qayta tayyorlash orqali kadrlarni tayyorlash va bilimni o'stirish. Turizm sohasiga davlat tomonidan e'tiborning kuchayib borishi natijasida sohada malakali kadrlar tayyorlash miqdori va sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarildi. Ushbu sohada kadrlar, xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishni yuqori darajada tashkil etish hamda tarmoq turizm fanlarini rivojlantirishga ko'maklashish O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan tashkil qilinadi.

Qo'mitaning o'quv ilmiy konsalting markazi turizm sohasida kadrlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash markaziga aylantirildi. Shu bois, turizm sohasidagi bo'lajak kadrlarni sifat va samardorlik jihatdan o'stirishga erishilmoqda.

Umuman, ta'lim sohasida kadrlar tayyorlash ta'lim jarayonini boshqarishning ta'sirchan usuli bo'lib, u pedagogik muloqot, ishlantirish, asoslash va

muntazam nazorat kabi tamoyillar bilan namoyon bo‘ladi. Natijada, har bir sohada tayyorlanadigan kadrlar yuqoridagi ijobiy fazilatlarni o‘zida mujassamlashtiruvchi sifatida har bir sohaning kadrlari qo‘yilgan muhim talablar asosida tayyorlanadi.

Hamda ta‘lim sohasida kadrlar tayyorlash har bir jamiyat sohasi uchun qabul qilingan qonun, qaror kabi bir qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlar tufayli amalga oshirilmoqda. Chunki, bu holatlar respublikamizda ta‘lim sohasini tashkil etish va kelajakda yuksak qirralarda rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatadi. Bu bilan ta‘lim tizimida kadrlarni tayyorlashni asosiy yo‘nalishlari aniqlanib, ularning ta‘lim sohasidagi rolini ochib berishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, turistik salohiyatni qo‘llab-quvvatlash masalalariga xos bo‘lgan kadrlar tayyorlash tizimidagi mavjud kamchiliklar bo‘lib, viloyatning turistik jozibadorligini oshirishga ko‘maklashuvchi turli davrlarga oid tarixiy ma‘lumotlardan foydalanishning samarasizligi, chet ellik va mahalliy turistlarni viloyat turistik salohiyati bilan tanishtirish ishlarini keng yo‘lga qo‘yilmaganligi, viloyatning turizm sohasidagi kadrlar salohiyati va sohaning kadrlarga bo‘lgan ehtiyojining mutanosibligi, viloyatni o‘zida aks ettiruvchi, o‘ziga xos belgilar bilan bezatilgan suvenir industriyasining rivojlanmaganligi hisoblanadi.

Yuqoridagi muammolarni hal qilish hamda malakali kadrlar tayyorlash va uni sifatli qilib amalga oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- ish bilan bandlik masalalari hal qilishga qaratilgan yarmarkalarni tashkil etish va doimiy amalga oshirib borish;
- muntazam ravishda attestatsiya va akkreditatsiya ishlarini o‘tkazib turish ishlarini amalga oshirib borish;
- kadrlar salohiyatini oshirishga katta xizmat ko‘rsatuvchi turli mavzu va muammolarni hal qilishga qaratilgan ko‘rik tanlovlar, tadbir va qiziqarli uchrashuvlarni o‘tkazib borish;
- kadrlar uchun malaka oshirish va qayta tayyorlash o‘qitish ishlarini tashkil etib, shunday tartibda turizm sohasidagi xodimlarni o‘qitishni tashkil etish.
- kadrlarni turizmning yangi va yosh bo‘lgan turlariga bo‘lgan

qiziqishlarini aniqlab, shu sohalarga ishlashlarini tashkil etishni amalga oshirish;

- kadrlarni xorijiy rivojlangan mamlakatlarda, jumladan, Yaponiya, Avstraliya, Shvetsiya va Ispaniya turizm va mehmonxona xo'jaligi maktablarida malaka oshirish o'qishlarini tashkil etish va ushbu mamlakatlardan tajribali professor o'qituvchilarni jalb qilish.

- yosh kadrlarni aniqlab olib, ularning yangi g'oyalari va takliflarini umumlashtirib, shular asosida yangi turistik faoliyatni amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Umuman olganda, turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash ma'lum bir tizimda boshqa sohalar bilan aloqadorlikda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Aniqrog'i aytganda, malakali kadr quyidagi talablarga to'la javob berishi lozim:

- o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishlik va soha bo'yicha holatlarni to'la tahlil qila olishlik;

- chet tillari, axborot texnologiyalari va internetdan foydalanish bo'yicha yetarli ma'lumotga ega bo'lishlik;

- kelajakni oldindan yaxshi ko'ra bilishlik va bashorat qila olishlik;

- mas'uliyatli, tashabbuskorlik va tadbirkorlik qila olish qobiliyatiga ega bo'lishlik;

- raqobatda yutib chiqishga mos bo'lgan va bozor iqtisodiyotining qoidalarini yaxshi bilgan mutaxassis bo'la olishlik va h.k.;

Agar yuqoridagi chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali kelajakda turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash ishlarini takomillashtirishga erishish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2014.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" qonuni. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: O'zbekiston, 1997. 20-29 b.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 11-12-son, 295-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda). Toshkent sh., 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son.
5. Karimov I.A. Mamlakatimizni yanada obod etish va modernizatsiya qilishni qat'iyat bilan davom ettirish yo'lida. 21-jild. – T.: O'zbekiston, 2013. – 223 b.
6. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiyl mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. // Xalq so'zi. 2016 yil 16 yanvar, №11 (6446).
7. Birinchi Prezident I.A.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda o'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha O'quv qo'llanma. - T., 2012. -126 b.
8. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish bizning bosh maqsadimizdir. Birinchi Prezident I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag'ishlangan marosimdagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. –T.: O'qituvchi, 2013. - 56 b.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga

bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. // "Xorazm haqiqati" gazetasi. 2017 yil 18 yanvar. № 5 (19351).

10. Агамирова Е.В. Управление персоналом в туризме и гостинично-ресторанном бизнесе. Учебное пособие. - М.: Дашков и К, 2006.

11. Зайцева Н.А. Менеджмент в социально-культурном сервисе и туризме. Учебник. - М.: Академия, 2003.

12. Карякин А.М. Управление персоналом: Электронное учебное пособие. 3-я редакция. Иван.гос.энер.ун-т. - Иваново, 2005.

13. Музыченко В. Мастер класс по управлению персоналом. – М.: Management - PRO. 2008.

14. Abdurahmonov K.X. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. – T.: Mehnat. 2004. -339-340 b.

15. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti (nazariya va amaliyot). Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. -T.: Mehnat, 2004. - 362 b.

16. Abdurahmonov Q.H. va boshqalar. Personalni boshqarish. Darslik. - T.: O'qituvchi, 2008.

17. Allabergenov A.A., Shaabasova N.H., Keldiyarova S. Turizm biznesini tashkil etish. Dastur. - T., 2012. - 32 b.

18. Zaynutdinov Sh., Nurimbetov R. Personalni boshqarish. – T.: Yangiyo'l, 2007.

19. Nazarov A.Sh. Mehnatni tashkil etish va normalash: Darslik. – T.: TDIU, 2004.

20. Narziqulov N.R., Muhammedova O.H., Boqieva I.A., Inson resurslari iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. – T.: 2004.

21. Pardayev M.Q., Abdukarimov B.A. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. - Samarqand, 2002. - 19 b.

22. Peregudov L.V., Saidov M.X. Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti. – T.: Moliya, 2002.

23. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. - T.: Moliya, 2003.

24. Yo'ldoshev J.G., Usmonova S.A. Pedagogik texnologiyalar asoslari. - T.: 2004. - 4 b.

- 25.Sharifxo‘jayev M., Abdullayev Y. Menejment. Darslik. - T.: O‘qituvchi, 2001.
- 26.Xo‘jayev N., Xasanboyev J. Iqtisodiy pedagogika. - T., 2002.
- 27.Amriddinova R.S. Mehnat resurslarini boshqarish asosida turizm xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari (Samarqand viloyati turizm korxonalari misolida) // Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. - S.: SamISI, 2012.
- 28.Matyoqubov U.R. “Ekologik vaziyatni inobatga olib turizm samaradorligini oshirish yo‘nalishlari va istiqbollari (Xorazm viloyati misolida)” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasining avtoreferati. – Samarqand, 2011. – 12 b.
- 29.Buxoro Davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. 2015 yil №1. – 131 b.
- 30.Qahhorov O. Oliy ta’lim tizimida iqtisodchi kadrlar tayyorlash va boshqaruv jarayoniga ta’sir etuvchi omillar. // “Biznes-ekspert” jurnali. 2017 yil №2. – 68 b.
- 31.“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №2, mart-aprel, 2016 yil.
- 32.Aminova M., Xudayberganov D. Turizm sohasida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalalari. // “Turizm infratuzilmasini rivojlantirishning metodologik, uslubiy asoslarini takomillashtirish” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. - Samarqand, 23-24 aprel. 2014 yil. - 498 b.
- 33.“2017-2021 yillarda Xorazm viloyati va Xiva shahrining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish” Dasturi.
- 34.O‘zbekistonda turizm. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘plami. – T., 2015. www.stat.uz
- 35.Xorazm viloyati o‘rta maxsus ta’lim kasb-hunar ta’limi boshqarmasining ma’lumotlari
- 36.Urganch Davlat universiteti “Turizm” kafedrasining ma’lumotlari
- 37.www.lex.uz
- 38.www.edu.uz
- 39.www.uzbekturism.uz
- 40.<http://uz.denemetr.com/docs/768/index-75949-1.html?pageq11>
- 41.<http://huquqburch.uz/uz/view/340>